



Tadqiqot uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



**31 MAY
№28**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
7-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
28-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-7**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
28-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-7**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 28-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 92 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

1. Sanaqulova Dilrabo Fozilovna UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI.....	8
2. Хамидова Нигора Тулкуновна РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ИЗУЧАЮЩЕГО ЧТЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ В АСПЕКТЕ ТРЕБОВАНИЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ СИСТЕМЫ PIRLS	10
3. Jalilova Muxlisa A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA METAFORA VA O'XSHATISHLAR	12
4. Maxamatova Maxliyo LINGVOMADANIY KODLARNING MAQOLLARDA IFODALANISHI	14
5. Samadov Sanjar O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA LEKSIK-SEMANTIK QARAMA-QARSHILIKNING IFODALANISHI	16
6. Saydazzamova Chamangul Olimjon qizi TAKROR-LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA.....	19
7. Xolmatov Olimjon Alisher o'g'li O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA NOMA JANRINING SHAKLLANISHI TADRIJI.....	22
8. Raupov B.V. FUNCTIONAL-SEMANTIC APPROACH TO THE STUDY OF THE CATEGORY OF NUMBER IN LINGUISTICS	24
9. Aminova Sitara CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA UNING SAMARADORLIGI.....	26
10. Болтаева Нигора Нуруллаевна ИНФОРМАЦИОННЫЕ И МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ	28
11. Djumaniyazova Surayyo Yaxshimuratovna, Ko'palova Barno Kadamovna TIL MADANIYATI VA NUTQ MADANIYATI.....	30
12. Досчанов Хамдам Бекчанович ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	32
13. Mahmudova Barno Boqijonovna FILOLOGIYA FANLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LIDAGI ISLOHOTLAR	34
14. Otamurotova Zuxra Ismoilovna, Xayitova Dilnoza KO'CHMA MA'NO VA ULARNING TURLARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH.....	36
15. Parmanov Aktam G'ulomovich KATTA O'QUVCHILARIGA CHET TILINI O'RGATISH VA O'QITISH XUSUSIYATLARI	38
16. Qayumova Dilorom To'ychi qizi SURXONDARYO O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI XUSUSIDA	40
17. Qoraboyeva Halima Abdurahimovna ADABIY TIL MILLAT KO'ZGUSI.....	42
18. Sharfova Sevinch Jamoliddin qizi ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA METAFORALARNING QO'LLANILISHI	43
19. Yusuf Xumora Ikrom qizi ARABCHA GAZETA SARLAVHALARINI O'RGANISH UCHUN YONDASHUVLAR	45
20. Бабаджанова Дилором Султанбоевна ЛЕВ НИКОЛАЕВИЧ ТОЛСТОЙ	48

21. Джумаева Донохол ШАВКАТ РАҲМОН ШЕЪРИЯТИДА ҚЎЛЛАНГАН БАДИИЙ МЕТАФОРЛАР СЕМАНТИКАСИ.....	50
22. Райхона Дадаханова Бахрамжановна МЕСТО И РОЛЬ ПРИВЫЧНЫХ ВЫРАЖЕНИЙ (ГУАНЬЮНЬЮЙ) ВО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННОГО КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА	52
23. Raupov B.V. CONCEPTUALIZING QUANTITY AS A WAY OF REFLECTING REALITY	55
24. Xalimov Baxtiyorjon Orifjon o'g'li SPORT SHARHLOVCHILARI NUTQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	57
25. Abdusharipova Mohira Erkinovna LEKSIK SATHNING TIL SISTEMASIDAGI O'RNI	59
26. Dusmatova Nargiza Ergashevna LINGUISTIC MEANS OF EXPRESSING IRONIC CONTENT IN ENGLISH.....	61
27. Бутаева Зарифа Кучкаровна ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	63
28. Гафуров Саминжон Собиржон угли ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КЛАСТЕРОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.....	65
29. Imomqulova Sohiba SINTAKTIK TAHLIL O'TKAZISH USULLARI.....	67
30. Ismoilova Feruza Fakhritdinovna APPROACHES TO ACTIVATING VOCABULARY.....	69
31. Jabberganov Sarvar Rustamovich COMMON PROBLEMS FACED BY FOREIGN LANGUAGE LEARNERS.....	71
32. Matniyazova Enajon Nishanboyevna MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATI	73
33. Mo'minova Dilnozaxon Toxirjonovna INTERFAOL TA'LIM VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	74
34. Mukimova Gulirukhsor Pulatovna DEVELOPING PUPILS SPEAKING SKILL THROUGH STRATEGIES.	76
35. Ravshanova Gulchiroy Xolmamatovna O'ZBEK TILI DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIMNING O'RNI VA "CHARXPALAK" TEXNOLOGIYASI.....	79
36. Yulchibayeva Gulasal Sharifovna ONA TILI FANIDA O'QUVCHILARNING JIDDIY VA JUZ'IY XATOLARI USTIDA ISHLASH.....	81
37. Ваитова Гулираъно Ташпулатовна ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ОБУЧЕНИЯ.....	83
38. Миртазаева Гулмира Мирзаевна НОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ ОБУЧЕНИЮ ЯЗЫКУ	85
39. Xo'jamova Mahbuba Fayzullayevna, O'QUVCHILARDA YOZMA SAVODXONLIKINI OSHIRISHNING AHAMIYATI.....	88
40. Teshayeva Nargiza Sheraliyevna, ULUG' ADIB IJODINI O'RGANISHDA OSHKORA MULOQOT	90



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

УМУМТА`ЛИМ МАКТАБЛАРИДА РУС ТИЛИ ФАНИНИ О`ҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ

Sanaqulova Dilrabo Fozilovna

Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi

3-umumta`lim maktabining rus tili fani o`qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta`lim maktablarida rus tili fanini o`qitishning zamonaviy usullari, interfaol metodlar va ularni dars jarayonida qo`llash haqida nazariy va amaliy ma`lumotlar berib o`tilgan.

**Kalit so`z:** rus tili, metod, interfaol, o`yin

Mamalakatimizda umumiy o`rta ta`lim, o`rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta`lim tizimida ham yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo`lgan avlodni tarbiyalash ishlari izchil davom ettirilmoqda. 2019-yil dekabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida”gi qarori ham ta`lim sohasidagi islohotlarning davomi deb hisoblaymiz. Bu qarorga o`qitishning ilg`or uslublarni joriy etish yo`li bilan yosh avlodni chet tillarga o`qitish, shu tillarda erkin so`zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimining negizida ular jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko`lamda foydalanishlari xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-shariot va imkoniyatlar maqsad qilib qo`yilgan.

Umumta`lim maktablarida o`quvchilar uchun ko`pgina fanlar qatori chet tili fanlari ham qiziqarli hamda foydali fan hisoblanadi. Chet tilini bilish har bir o`quvchi uchun bir imkoniyat eshigini ochadi. Jahon tillaridan biri bo`lgan rus tilini o`rganish va bu tilda erkin muloqot qilish o`quvchilar uchun doimo qiziq bo`lib kelgan. Rus tili fani o`qituvchilari oldidagi eng katta vazifalardan biri ham o`quvchlarga rus tilini o`rgatishda interfaol va innovatsion usullarni izlab topish va ulardan samarali foydalanishdir. Rus tili darslarida yangicha metodlardan foydalanish o`quvchilarni rus tilini o`rganishga bo`lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Quyida rus tili darslarida o`quvchlarga til o`rgatishning bir nechta samarali va yangicha usullari bilan tanishamiz.

Multimediyalardan foydalanish.

Rus tili darslarida CD disklar, avdio kitoblar, rasmlar izohlardan foydalanish nutqni o`stiradi, ravon gapirishga yordam beradi. Til o`rgatishda eng foydali usul o`zaro og`zaki suhbat. Darsda ham ko`proq muloqot qilish, so`zlarni tezroq o`zlashtirishga undaydi. Ko`proq ertak kitoblar o`qish, rus tilida she`rlar yod olish ham nutqni ravon qiladi, so`zlari to`g`ri talaffuz qilishga undaydi. Mana shu sababli ham, til bilishda asosiysi, eshitib takrorlashdir. Multimediali materiallar video, audio, turli grafik shakllarda bo`lgani uchun uni qabul qilish va o`zlashtirish oson, bu esa dars samaradorligini yanada oshiradi.

Rus tilidagi adabiyotlarni ko`p o`qish.

Tilshunos olimlar: “Til-nafaqat muloqot turi va fikrlarni yetkazish, balki o`sha xalq madaniyatining ko`zgusi hamdir” deganlar. Shuning uchun, xorijiy mamlakatlar adabiyotidan hikoyalar tanlab olinganda, o`quvchi birato`la o`sha mamlakatning urf-odati, madaniyati, tarixiy voqealarini, tabiatini o`rganib boradi, tushuncha hosil qiladi.

Rus tilini o`yinlar orqali o`rganish.

O`yinlar - bu rus tili darsining odatiy tartibidan mamnuniat bilan tanaffus olishdir. Ular rag`batlantiruvchi va murakkab. Tilni o`rganish katta kuch sarflashni talab qiladi, o`yinlar o`quvchlarga o`rganish harakatlarini davom ettirishga yordam beradi. O`yinlar turli xil mahorat bilan so`zlash, yozish, tinglash va o`qishda til amaliyotini ta`minlaydi.



Filmlarni tomosha qilish orqali rus tilini o'rganish.

Hozirgi kunda o'qituvchilar o'quvchilarning kitoblarni, jurnallarni va gazetalarni o'qish bilan birga haqiqiy filmlarni tomosha qilishga bo'lgan talablarini inobatga olishmoqda. Ma'lumki, nafaqat bosma materiallar nafaqat o'qitishning ajoyib manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin, balki qo'shiq va filmlar ham chet tillarini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Rus tilidagi filmlarni ko'rish bolalarda shu tilde tog'ri talaffuz qilishga yangi so'zlarni o'rganishga, tilni yanada tez tushinishga yordam beradi.

Rus tili darslarida mehmonlar tashrifi.

Rus tili darslariga shu tilda chiroyli, to'g'ri va ravon gapira oladigan insonlarni masalan, yozuvchilarni, shoirlarni, tadbirkorlarni hamda imkon qadar turistlarni taklif qilish til o'rganishda yaxshi natija beradi. Tashrif cho'gida ular bilan suhbatlashish, rus tilida qiziqqan savollariga javob olish, mashhurlarning o'zlari haqida rus tilida gapirib berishi o'quvchilarda yaxshi taasurot qoldiradi va rus tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan olib qaraganda bugungi kundagi ta'lim izlanish va fikrlash, anglash hamda ijodkorlikka asoslangan bo'lmog'i lozim. SHundagina o'quvchi darsda faol ishtirok etib, xulosa chiqara oladi va o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babanskiy Yu.K. "Hozirgi zamon umumta'lim maktabida o'qitish metodlari" Toshkent - "O'qituvchi" 1990 y.
2. «Инновационные технологии на уроках русского языка и литературы в условиях современной общеобразовательной школы. «- Зарипова Н.



РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ИЗУЧАЮЩЕГО ЧТЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ В АСПЕКТЕ ТРЕБОВАНИЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ СИСТЕМЫ PIRLS

Хамидова Нигора Тулкуновна,
старший преподаватель кафедры
«Общее языкознание» ТГПУ имени Низами
+998901881541
khamidova72@list.ru

Аннотация: В статье изложены основные принципы международной программы по оценке уровня знаний учащихся PIRLS, рассмотрены приемы и методы эффективного обучения навыкам изучающего чтения.

Ключевые слова: международное исследование, принцип, уровень знаний, навык, читательская грамотность, изучающее чтение, предтекстовой и послетекстовой этапы.

Указом Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля 2019 года определены основные направления развития системы народного образования на долгосрочную перспективу, в частности, вхождение республики к 2030 году в ряд первых 30 ведущих стран мира по рейтингу программы оценки учащихся Международного уровня: PIRLS — оценка уровня и качества чтения и понимания текста учащимися начальной школы, PISA — оценка математической грамотности, грамотности чтения и естествознания 15–16-летних учащихся, TIMSS — оценка математической и естественно-научной грамотности учащихся 4-х и 8-х классов.

Международное исследование качества чтения и понимания текста PIRLS позволяет сравнить уровень и качество чтения и понимания текста учащимися начальной школы в различных странах мира, а также выявить различия в национальных системах образования. Исследование проводится пятилетними циклами начиная с 2001 года и в нем принимают участие от 35 до 50 стран.

В процессе исследования изучаются два вида чтения:

- чтение с целью приобретения читательского литературного опыта;
- чтение с целью освоения и использования информации.

Задания PIRLS направлены на проверку четырех навыков: умения находить информацию, формулирования выводов, интерпретации и обобщения прочитанного, а также анализа и оценки содержания, языковых особенностей и структуры текста.

Чтение, которому раньше мало придавалось значения в системе преподавания русского языка, стало постепенно одним из важных аспектов обучения, и на сегодняшний день это не только одно из средств обучения, служащее для поступления новых слов в словарный запас ученика, но и отправная точка для разнообразных высказываний диалогического и монологического характера. Чтение стало источником получения новой интеллектуальной и эстетической информации, реальной формой использования приобретенной языковой компетенции.

Изучающее чтение — наиболее подробный вид чтения. Целью этого вида является не просто тщательное изучение, но еще и проникновение в смысл текста, детальный анализ текста. Конечный результат направлен на понимание всех уровней текста, а также на восприятие разной информации, изложенной в тексте (фактуальной, концептуальной и подтекстовой).

Рассмотрим приемы работы с текстом, используемые для изучающего чтения. Предварительная устная работа не должна затрагивать содержания текста, с ним учащиеся должны знакомиться в процессе чтения. По окончании чтения текста объектом контроля должно быть его понимание. При этом проверка понимания должна быть организована так, чтобы она не разрушала в процессе чтения необходимых навыков. Учащиеся должны научиться понимать текст самостоятельно, поэтому первое чтение текста должно осуществляться самими учащимися. Нецелесообразно многократное чтение одного и того же текста, так как если содержание текста понятно, то чтение лишается своей коммуникативной ценности и превращается в упражнение. Повторное чтение текста оправдано, если оно направлено на



уточнение понимания, т.е. если коммуникативная задача видоизменяется.

Предварительные вопросы сохраняются до конца работы над текстом. Проверка понимания не должна ограничиваться только ответами на эти вопросы. Вопросы может задавать кто-либо из более сильных учащихся, на которые другие учащиеся отвечают. Обучение изучающему виду чтения на неродном языке состоит из трех этапов: предтекстовый, текстовый, послетекстовый. Предтекстовый этап подразумевает ознакомление с лексическими единицами, которые могут вызвать затруднение, а также прогнозирование содержания текста. Текстовый этап подразумевает чтение текста и работу над его лексико-грамматическим материалом. Послетекстовый этап нужен для совершенствования навыков монологической и диалогической речи.

Следует запомнить, что обучение чтению – важная задача, стоящая перед школой. Внимание, уделяемое повышению культуры чтения, служит важным фактором в воспитании молодежи, обладающей глубокими знаниями, самостоятельным мышлением и высокой духовностью. «Необходимо приобщать наших детей к чтению с детского возраста, начальных классов, воспитывать в них любовь к книге. Только тогда в нашем обществе утвердится читательская культура, люди вернутся к книге», — неоднократно подчеркивает Президент Узбекистана Ш.М. Мирзиёев.

Список используемой литературы:

1. Указ Президента Узбекистана «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля 2019 года
2. Цукерман Г.А. Компетентный подход к диагностике читательской грамотности (на материале тестов PIRLS и PISA). – Москва, 2015



A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA METAFORA VA O'XSHATISHLAR

Jalilova Muxlisa

Samarqand davlat universiteti

2-bosqich talabasi

Telefon: +998990246678

dinaraislamova777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir A'zam O'ktam she'rlarida qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalardan: o'xshatish hamda metaforalarning uslubiy-semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yozuvchining tili va uslubi, metafora, o'xshatish, murakkab o'xshatish, individuallik, o'ziga xos uslub, ta'sirchanlik, badiiy-tasviriy vositalar.

Ta'kidlash joizki, o'zining ijodi bilan xalqimizning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga munosib hissa qo'shayotgan ijodkorlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Xalqimiz tarixida o'zlarining noyob aql-idroki bilan milliy-ma'naviy vatanparvarlikni, ma'naviy dunyoqarash bilan hayotiy zukkolikni o'zida mujassam etgan ijodkorlar ko'p bo'lgan. Ana shunday ijodkorlardan biri, shoir A'zam O'ktamdir. A'zam O'ktam she'rlarida ajib bir latiflik kutilmagan shiddatli yakunlar bilan uyg'unlashib ketadi. Uning tili ham ravon, ham keskin. Zotan, shoirning har bir misrasida qalbida iymon urug'i ungan chin bir musulmonni, otashqalb yurt farzandini, mehribon ota timsolini ko'rishimiz mumkin. A'zam O'ktam yozganiday yashadi ya'ni o'z da'vatlariga o'zi suyanib, o'zi tayanib, o'zi himoya qilib yashadi. Unda o'ziga xos individuallik, samimiy satrlar, muhimi qalb tug'yonlari bisyor. Shoir she'rlarida badiiy-tasviriy vositalardan: o'xshatish va metaforalarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan,

Kuz. Ko'roydin. Jim o'tiribman,

O'ti o'chgan o'choq boshida.

O'tirgandek bo'lurman go'yo,

Sokin yuragimning qoshida.[1.6]

Yoki:

Yo'l entikdi,

Yuragi,

Qattiq-qattiq ura boshladi [1.15].

Shoirning "Onamga" nomli she'rida esa o'xshatishning go'zal namunalarini uchratishimiz mumkin:

Yig'iga o'xshagan tabassum bilan

Yana qoshingizga qaytmoqdadirman.

Ilhom meni sernoz malikalardek

"Fuqaro, fuqaro, fu, qaro!" deydi.

Manzilim olisdir, menga yo'l tilang

Bobom Muqannaning ko'ylagidek oq[1.3].

Shoirning "Adashding" va "Qaytish" nomli she'rlarida esa o'xshatishning murakkab bir turini ko'rishimiz mumkin:

Kayfi oshdi, deya qolaman,

Bir adashdi, deya qolay, yaxshisi.

Baribir ko'nglim g'ash,

Go'yo xotinim tashlab yuborgandek beparvo,

Chiqindiga qo'shib,

Otamning rasmin...

Qabrni o'ylar enam-

To'yi yaqin qolgan kelinchak,

Bo'lg'usi uyini qandoq bezatish,

yasatishni o'ylab entikkan kabi...[1.5]

Dunyodagi rivojlangan har bir tilda uchrovchi metaforalar va o'xshatishlar ulardan foydalanib kelayotgan xalq singari qadimiydir. Metaforalar va o'xshatishlar har bir xalqning badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, ming yillar davomida ijtimoiy-siyosiy va milliy-madaniy qarashlar zamirida yuzaga kelgan. A'zam O'ktam she'rlarida o'xshatish va metaforalarni joy-joyiga qo'yadi, so'zlarga



yangi ma'no ottenkalari beradi, uni silliqlashtiradi.[2.8] Xulosa qiladigan bo'lsak, shoir ijodida qo'llanilgan badiiy tasviriy vositalar shoirning o'ziga xos individual mahoratini ko'rsatibgina qolmay, o'ziga xos uslubini ham belgilab bergan desak mubolag'a bo'lamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zam O'ktam. Kuzda kulkan chechaklar. – Toshkent, 1990. – B 51.
2. S.Karimov. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand, 1994. – B 54.



LINGVOMADANIY KODLARNING MAQOLLARDA IFODALANISHI

Maxamatova Maxliyo

Termiz davlat universiteti

Lingvistika: o'zbek tili ta'lim
yo'nalishi I bosqich magistanti

Annotatsiya: Madaniyat kodlari xususidagi ilmiy ta'rif va talqinlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu termin muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimini bildiradi. Madaniyat kodlari inson tomonidan olamni kategoriyalashtirish jarayonining mahsulidir va bunda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson tili madaniy mazmunning eng muhim ifodachilaridan biri hisoblanadi. Madaniyat kodlari tilda asosan xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg'un o'xshatish, metafora, qarg'ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda inikos etadi.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, maqollar, lingvokulturologik tahlil, lingvo-madaniy kodlar.

Ona tilimiz – o'zbek tili o'zida xalqning qadryatlari, milliy tafakkuri, tarixi, ruhiyati, ma'naviy dunyosi, o'ziga xos urf-odatlarini jamuljam etgan noyob bir hodisa, buyuk bir ne'matdir. Lison deb atalgan noyob bir hududda makon topgan noyob so'z javohirlarini, uning betakror xususiyatlarini kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishdek sharaflı vazifani ado etishda lingvistik tadqiqotlar ham muhim o'rinni egallaydi.

Tilimizning be'takrorligi o'ziga xosligi esa undagi har bir kichik-kichik ifodalarda ham, o'xshatishlar, qiyoslar, turfa xil metaforik birliklarda ham o'z aksini topadi. Xususan, maqol va iboralarda qo'llanadigan madaniy kodlar tilimizdagi o'ziga xoslikni, turfa rangliklarni o'zgacha ochib berishga xizmat qiladi.

Tilshunosligimizda lingvomadaniy kodlar masalasi yangi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu xususda izlanishlar olib borayotgan D.Xudoyberganova fikrlarini shunday yozadi: "Madaniyat kodlari xususidagi ilmiy ta'rif va talqinlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu termin muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimini bildiradi. Madaniyat kodlari inson tomonidan olamni kategoriyalashtirish jarayonining mahsulidir va bunda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson tili madaniy mazmunning eng muhim ifodachilaridan biri hisoblanadi. Madaniyat kodlari tilda asosan xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg'un o'xshatish, metafora, qarg'ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda inikos etadi. Madaniyat kodlarida insonlarning moddiy va ma'naviy olam haqidagi tasavvurlari, milliy tafakkuri, aksiologik qarashlari yaqqol ko'zga tashlanadi". Jumladan, tilimizda ramziy ma'noga ega bo'lib qolgan birliklar lingvomadaniy kodlarning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Til va madaniyat uzviyligini tadqiq etuvchi soxa hisoblangan lingvokulturologiya asoschilaridan biri V.N Teliya shunday yozadi; "Madaniyatning o'ziga xos "tili" bor : u biz bilan memorchilik, rassomchilik, musiqa, raqs, adabiyot va insoniyatning boshqa ijod mahsullari orqali so'zlashadi. Lekin madaniyat "tili" ning eng universal vositasi tabiiy tildir.

Ma'lumki, olamni idrok etishning har bir til jamoasi ongida tarixan shakllangan, barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo'lgan odatiy va majburiy usullari majmui olamning lisoniy manzarasini yuzaga keltiradi. Olamning lisoniy manzarasi dunyoni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullari yig'indisidir. Lingvokulturologiyada madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining tarkibiy qismlaridan biri sifatida etirof qilinadi. V.N Teliyaning fikriga ko'ra, madaniyat kodlari - muayyan madaniy mazmunini kodlashtirish maqsadida qo'llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimidir D.B Gudkov, M.L Kovshova-larning madaniyat kodlari xususidagi tarifi ham yuqoridagi tarifga yaqin;" Madaniyat kodlari – insonning moddiy va manaviy olamiga oid bo'lgan madaniy mazmunni ifodalovchi belgilar tizimi, ular verbal shaklda ham noverbal shaklda ham bo'lishi mumkin." Madaniyat kodlari xususida tadqiqot olib borgan mutaxassislar aksariyat hollarda rus tadqiqotchisi V.V Krasnixning "Madaniyat kodlari va etalonlari" nomli maqolasida keltirilgan obrazli tarifini iqtibos qilib keltiradilar. Olimning ta'kidiga ko'ra, madaniyat kodlarini borliqqa tashlangan tur sifatida tasavvur qilish mumkin. Tasavvurimizga xos bu "to'p" bizni o'rab turgan olamni qisimlarga ajratadi, tartiblashtiradi, shaklga soladi handa



baholaydi. Ilmiy adabiyotlarda madaniyat kodlarining turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma'naviy kod, antropomorf kod, fazoviy kod, urishga oid kod, tibbiy kod, memoriy kod, sport kod geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi, mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kabilar qayd etiladi. Ayrim tadqiqodchilar zoomorf kod hamda fitomorf kodni biomorf kodning turlari hisoblaydilar, biomorf kod ba'zan nabotot-landshaft kabi tarzida ham nomlanadi. Lingvokulturologiyada madaniy kodlarning asosiy turlari borasida V.V Krasnixning tasnifi etirof etiladi. Olim somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod xamda manaviy kodni madaniyat kodlarining eng asosiy turlari sifatida belgilaydi. Uning fikricha, mazkur kodlarda ifodalangan maskur olamning tuzilishi haqidagi ilk sodda tasurotlarni namoyon etib, rus madaniyatining arxetipik taasurotlaroga muvofiq keladi.

Inson tafakkuri tadriji natijasida ayrim somatik kodlar makoniy kodlarga aylana borgan. Bu masalaga rus olimi Krasnix inson yuragining his-tuyg'ular makoni sifatida, boshniong esa fikrlar makoni sifatida anglanishi va buning bir qator iboralarda o'z aksini topganligini dalil sifatida keltiradi. Lingvokulturologiyada kodlar masalasiga nazar tashlaganda makoniy kodlarga ham alohida to'xtaladi.

O'zbek xalq maqollarida lingvomadaniy kodlarni namoyon etuvchi eng muhim birliklar hisoblanadi. Lingvomadaniy kodlar orasida gul va tikan fitomorfklariga qisqacha to'xtalib o'tishimiz joiz. Gul va tikan insonlar ongida ramziylashgan kod sifatida muhrlanib qolgan. Gul-go'zallik,ezgulik ramzi sifatida, tikan esa yomonlik, ozor beruvchi sifatida muhrlanib qolgan. Buni birgina maqol asnosida ko'rib o'tamiz.

Tikan bo'lib oyoqqa qadalguncha,

Gul bo'lib ko'krakka sanchil.

Bu maqolda gul va tikan fitomorf kodlaridan foydalanilgan. Ushbu maqoldan kelib chiqadigan mazmun shundan iboratki, tikan bo'lib, ya'ni yomon inson bo'lib o'zgariga zarar yetkazguncha, gul bo'lib, ya'ni yaxshi odam bo'lib, insonlarga foyda keltirgin mazmunidagi fikr yoritilgan. O'zbek lingvomadaniyatida gul go'zallik ramzi hisoblanada, shuning uchun gul fitomorf kodi o'zbek maqollarida, iboralarida ko'plab uchraydi, bu yerda gul yaxshi odam timsoli sifatida, insonlarga yaxshiliklar ulashadigan, hamisha ular uchun qayg'uradigan, naf keltiradigan inson timsoli, tikan esa yomonlik, yomon inson timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, gapning tikandek sanchilishi iborasida ham salbiy ma'no, gapning inson ko'nglini jarohatlagani, ozor bergani haqidagi mazmun yuzaga chiqadi. Ushbu maqol va iborada gul va tikan so'zlari qatnashganligi maqol va iboraning majoziy mazmunda bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu sababli bu yerda gul va tikan lingvomadaniy kod hisoblanadi. Ushbu maqolning mazmunini anglashimiz uchun gul va tikan o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda ifodalanganini anglashimiz lozim.

Adabiyotlar

1. Худойберганава Д. Лингвакультрологияда маданият кодлари тушунчаси ва талқини // Ўзбек тили ва адабиёти - Тошкент, 2009.- № 3 В. 34.
2. Ойноткинова Н.Р. Соматический код культуры в пословицах и поговорках алтайцев // Сибирский филологический журнал – Новосибирск, 2011. - № 3. - С. 5-14;
3. Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М. 2006-С. 12.
4. Собитова З.К. Лингвокультрология: учебник. –М. Флинта: Наука, 2013. –С 8-9.
5. Красних В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговорь) // Язык, сознание коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001. – С.6.
6. Usmonov F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tatqiqi. // - Andijon, 2019. – В. 25-28.



О‘ЗБЕК ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИДА ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ҚАРАМА-ҚАРШИЛИКНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Samadov Sanjar

Termiz davlat universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi

1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada leksik-semantik qarama-qarshiliklar ifodalangan bo‘lib, bunda bir nechta maqollar orqali ular tarkibidagi leksik-semantik qarama-qarshilik xususiyatlari ochib berilgan. Aynan mana shunday qarama-qarshiliklar maqollardagi hissiy-mazmuniy ta’sir doirasini yanada orttirishi ifoda etib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Paremiologik birlik, ko‘chma ma’no, tazod, maqol, grammatik qurilish, qarama-qarshilik, antonimiya, ziddiyat, sodda gap, hikmatli ibora.

Har bir xalq o‘zining ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarini chuqurroq anglashga, o‘z tarixini ko‘proq bilishga intiladi. Shuningdek, har bir millat va elatning o‘ziga xos urf-odati, an’analari, milliyligi, qadriyati shu xalq tarkib topgan ya’ni shakllana boshlagan davrlardan balki, undan ham avval shakllangandir. Aynan mana shunday urf-odat va marosimlar xalqning kim ekanligini ko‘rsatib beradi. Yozuvchi Tog‘ay Murod aytganidek: «Xalq nimasi bilan xalq! O‘zining urf-odatlarini bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy an’analari bilan xalq!»¹.

Maqollar esa bizga qadim o‘zbek xalqining eng botiniy urf-odatlarini, an’analari, marosimlari, his-tuyg‘ulari, afsonalari, rivoyatlari, yurish-turishi, turmushi, mehnat faoliyati, jamiki moddiy va ma’naviy olamini aks ettirib beradi. Bunda maqollarning afzallik jihati shundaki: Maqol oddiy so‘z yoki gap orqali ifodalangan fikrdan ta’sirli va ixcham shaklga egaligi, shuningdek, xulosa yo‘sinida berilishi, hukm ya’ni rad etilmaydigan, to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilinadigan paremiologik birlik sifatida tilimizda muhim o‘rin egallaydi. Maqollar ko‘chma ma’noda yoki o‘z ma’nosida ham qo‘llanishi mumkin. Maqollar soda gap ko‘rinishida ham qo‘shma gap ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin.

Maqol-hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan, ixcham obrazli, tugal ma’noli va hikmatli ibora yoki gapdir².

«Maqol kamida bitta gapga teng keladi, hukm xarakterida bo‘lib, Grammatik fikr ifodalaydi, o‘z ichki Grammatik qurilishi jihatidan ham doim gapga teng bo‘ladi, undan anlashilgan mazmun faqatgina tasviriy yo‘l bilan ochiladi»³

Jaloliddin Rumiy aytganidek: «Har qanday «ashyo»ning qimmatini zidi bilan ayon bo‘ladi, zidi bo‘lmagan narsani ta’rif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Tangri nurning oshkor bo‘lishi uchun qorong‘u etib yaratilgan mana bu olamni mavjud ayladi⁴, -deydi. Mana shunday ziddiyat, qarama-qarshilik tushunchasi maqollarning leksik-semantik asosida ham uchraydi. Bunday maqollar orqali berilgan ibratomuz fikr kishiga kuchliroq ta’sir qiladi. Uni o‘yga toldiradi, fikrlashga majbur qiladi.

Masalan shunday maqollardan biri: **Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan**⁵. Bu maqoldagi **achchiq-chuchuk, uzoq-yaqin** so‘zlari o‘zaro ma’naviy antonimlikni yuzaga chiqaryapti va qarama-qarshilik orqali maqol mazmuni yanada ta’sirliroq ifodalanyapti. Bu maqol xalq orasida ko‘pincha ko‘chma ma’no ifodalab, biror bir voqea hodisani o‘zining boshidan o‘tkazgan, o‘z hayotida ko‘rgan, sinagan, o‘sha vaziyatga tushgan inson biladi. Undan boshqa odam bu holatni to‘la his qila olmaydi degan ma’no bor. Shuningdek, bu maqol ko‘pni ko‘rgan tajribali kishi ma’nosini ham ifodalaydi.

Ahmoqlarga bosh bo‘lguncha, donolarga yosh bo‘l. Bu maqolda esa **ahmoq-dono, bosh-**

¹Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”. / Qissalar – T. ; “Sharq” 2009. - 47-b

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати (М ҳарфи)/ А. Мадвалиев таҳрири асосида/ Т. : 1998. 569-бет.

³Ўзбек халқ мақолларининг лингвистик асослари[матн] Б. Жўраева. - Тошкент: Akadernashr, 2019. 24-b.

⁴ Mavlono Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichingdadir: Falsafiy asar // Tarjimon Ulug‘bek Hamdam; Mas‘ul muharrir Najmiddin Komil /. — Toshkent, Yozuvchi, 1997. 74-bet.

⁵O‘zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. M. usqulov, B. Sarimsoqov; Mas‘ul muharrir: Sh. Turdimov. — T.: «Sharq», 2005. 281-bet.



yosh so'zlari ma'noviy qarama-qarshilikni yuzaga chiqaryapti. Maqolda ibratomuz nasihat aks etgan bo'lib, bu oddiy nasihat bo'lmay, bu maqoldagi butun bir mazmun mohiyatni kuchaytirayapti va ifodaviylik, ta'sirchanlikni yanada kuchliroq yuzaga chiqishini taminlayapti. Bu maqol orqali ba'zi nodon, aqlsiz, ilmsiz, johil odamlar orasida o'zingni ko'rsatib, ularga bosh bo'lib yurgandan ko'ra, o'zingdan aqli va bilimli, dono insonlar orasida yosh bo'l ya'ni tajribasiz bo'l va ulardan o'rgangin ma'nosini beradi, chunki bilimning, ilm-u ma'rifatning chegarasi yo'q. Faqatgina ahmoqlargina har narsani bilaman deb o'ylaydi. Aksincha, inson qanchalik ko'p bilsa, shuncha bilmasligini his qiladi.

Shakar ham tida, zahar ham. Bu maqolda **shakar va zahar** bir-biriga qarama qarshi so'zlar. Bizga ma'lumki, har qanday kasallikka da'vo bo'lsa ham til zahridan zaharlangan insonga da'vo yo'q, chunki insonda ko'ngil, qalb nomli azolar, borki, bu insondagi eng nozik azolardir. Agarda inson qalbi yomon so'zdan yaralansa, hech qachon tuzalmaydi. Tuzalsa ham, yanggilanib ketaveradi, Shuning uchun ham ko'ngil mumtoz adabiyotining asosiy tasvir manbai hisoblanadi. Chunki tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh kishining ko'nglidagina aks etadi. Ishq ham ko'ngil ishidir. Shuning uchun ham bu maqol xulosa yanglig' insonni shirin tillilikka, boshqalarga tili bilan ozor bermaslikka undaydi.

Kattaga hurmatda bo'l, kichikka-izzatda. Bu maqolda **katta va kichik** so'zlari o'zaro antonimlikni yuzaga chiqarib, hissiy ta'sir yuqoriligini ta'minlab bermoqda. Maqolda o'zbek xalqiga azal-azaldan xos bo'lgan kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilib doimo ularga g'amxo'r bo'lish kabi insoniylik xislatlari aks etgan. Kattalarga hurmat ular gapirganda gapini bo'lmasdan tinglash, ulardan oldin dasturxonga qo'l uzatmaslik, o'zidan yoshi ulug'larga salom berish, ular agar nohaq bo'lsa ham gap qaytarmaslik va yana bir qancha o'zbeklarga xos odatlar kattalarga hurmatning bir ko'rinishidir. Kichiklarga izzat esa ularni yaxshi ko'rish, ularni himoya qilish, ularning tarbiyasiga e'tibor berish, ularni shirin so'zlar bilan ruhlantirish va boshqalardir. Qisqa qilib aytganda bu maqol o'zbek millatining mentalitetiga har jihatdan xos va mosdir.

Maqollardagi bunday qarama-qarshilikni yuzaga chiqarayotgan so'zlar badiiy adabiyotda **tazod** deb atalgan alohida san'atini yuzaga chiqaradi.

«Aksariyat maqollarda ikki mantiqiy markaz o'zaro ziddiyatli munosabatda beriladi, bunda tazod san'ati asosiy badiiy-tasviriy vosita sifatida estetik vazifani o'taydi: «Avval o'yla, keyin so'yla», Ko'p o'yla, oz so'yla», Avval bahor, oxir xazon», Bas etgan o'zar, qasd etgan to'zar», Boyning o'g'li kelsa to'rga-to'rga, kambag'alning o'g'li-go'rga», Yomon o'g'il - molga o'rtoq, Yaxshi o'g'il- jonga», Ishlagan yerni yashnatar, ishlamagan qaqshatar» singari maqollarda o'git mag'zi yaxshi va yomon nisbatlarining o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi natijasida yarqirab turibdi va bu maqollarda antonomiya hodisasi tarzida qaraladi¹.

Qarama-qarshilik antik davrdanoq faylasuflar e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan kategoriya sifatida xarakterlanadi. Sokrat, Platon, Aristotel, Protagor, Demokrit kabi faylasuflarning ilmiy qarashlarida bu kategoriya turlicha talqin etib kelingan². Ayniqsa, Aristotelning qarama-qarshilik haqidagi ilmiy qarashlari alohida e'tiborga molik. T. F. CHursunova Aristotelning falsafiy qarashlariga baho bera turib, shunday deydi: «Antonomiyaning o'rganilishi qadimgi yunon faylasufi Aristoteldan boshlangan. ³Qarama-qarshilik borliqdagi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Olamni anglashda qarama-qarshilik kategoriyasining o'rni beqiyos. Falsafiy nuqtayi nazardan har qanday hodisaning o'rganilishi, ertami-kechmi, ularning qarama-qarshi tomonga murojat qilinishiga olib keladi. Masalan, B. Spinoza «Etika» asarida his-tuyg'ularning tabiatini ochishda qarshilantirishdan unumli foydalanadi va ularning ifodasini so'zlarni qarshilantirish orqali tushuntiradi. Faylasuf hodisalarga kontrast asosida yondashayotganini quyidagi fikrlar orqali asoslaydi: «Aniqlash-bu qarshi qo'yish demakdir»⁴.

Gegel shunday degan: «Qarama-qarshilik - haqiqat mezon, Qarama-qarshilikning yo'qligi esa

¹ Safarov Oxunjon. O'zbek xalq og'izaki ijodi: pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darslik//T. :Musiq,2010. 297-b.

² Bu haqida qarang:Д. Абдуллаева. Узбек тилида антисемия Филол. Фанлар номзоди дисс. . . авто-реф. -Тошкент,2010. 5-6

³ Bu haqida qarang:Д. Абдуллаева. Узбек тилида антисемия Филол. Фанлар номзоди дисс. . . авто-реф. -Тошкент,2010. 5-6

⁴ Bu haqida qarang:Д. Абдуллаева. Узбек тилида антисемия Филол. Фанлар номзоди дисс. . . авто-реф. -Тошкент,2010. 6-6



xatolar mezoni». Bunday fikrlar orqali Gegel falsafada qarama-qarshilikning g'oyat muhim hodisa ekanligini isbotlagan. Qarama-qarshilikning tildagi ahamiyati ayniqsa maqollarda yaqqol seziladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, maqollardagi leksik- semantik qarama-qarshilik maqollarning mazmuni va ta'sir doirasini yanada orttiradi. Insonga ta'sir doirasi oddiy so'z yoki gapga qaraganda kuchli va bo'yoqdor bo'lib, badiiylikni ifodalab, ixcham va xulosalash yo'sinida jarangdor eshitiladi. Tilimizda bu kabi maqollarning ko'pligi o'zbek xalqining naqadar ko'pni ko'rgan, hayot tajribasi nihoyat darajada yuqori ekanligidan dalolatdir. SHuningdek, bunday maqollarda fikrimizni yana bir bor foydalanib, uning tub mag'zini chaqib ko'rishimiz esa ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz aytgan har bir ibratli va purma'no firlarga amal qilib, ularga hurmat bilan qarashimizning nishonasidir. Bundan ko'rinadiki, o'zidan kattalarni hurmat qilish, bobolar pandiga amal qilish o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan muqaddas tuyg'ular hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. M. usoqulov, B. Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: Sh.Turdimov. — T.: «Sharq», 2005. 281-bet.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (М ҳарфи)/ А. Мадвалиев таҳрири асосида/ Т. : 1998. 569-бет.
3. Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi"/ Qissalar – T. ; " Sharq " 2009. 47-b
4. Ўзбек халқ мақолларининг лингвистик асослари[матн] Б. Жўраева. - Тошкент: Akademyashr, 2019. 24-b.
5. Safarov Oxunjon. O'zbek xalq og'zaki ijodi: pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darslik// -T. : Musiq, 2010. 297-b.
6. Д. Абдуллаева. Ўзбек тилида антисемия Филол. фанлари номзодлик дисс. . . автореф. -Тошкент, 2010. 5-б
7. Mavlono Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadir: Falsafiy asar // Tarjimon Ulug'bek Hamdam; Mas'ul muharrir Najmiddin Komil /. — Toshkent, Yozuvchi, 1997. 191 bet.
8. www.ziynet.uz



TAKROR-LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA (RAUF PARFI SHE'RIYATI MISOLIDA)

Saydazzamova Chamangul Olimjon qizi

Samarqand davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Telefon: +998915321533

dinaraislamova777@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada takrorning badiiy-tasviriy vosita sifatida poeziyada qo'llanilishi shoir Rauf Parfi she'riyati misolida ochib berilgan. She'rda takrorning fonetik, leksik, birikmali, misralar takrori kabi turlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Takror, asonans, rifma, alliteratsiya, leksema, tasviriy vositalar, tovushlar takrori, misra, birikma, anafora, epifora, to'rtlik, qofiya.

Takror o'zbek adabiyotida keng qo'llaniladigan lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi. Birgina takrorning o'ttizga yaqin turlari mavjudligi badiiy uslubda ifoda-tasvir imkoniyatlarining naqadar kengligidan dalolat beradi¹. Ezgu so'zning qudrati, jilosi, ayniqsa, nazmda yorqinroq namoyon bo'lganidek, takrorning she'riyatda qo'llanilishi alohida joziba, o'ziga xoslik, individuallik kasb etadi. Buni o'zbek she'riyatining yorqin namoyondalaridan biri shoir Rauf Parfi she'riyatida ko'rish mumkin. Shoir she'rlari insonning shuurini yuksaltiribgina qolmasdan, qalbni poklashga xizmat qiladigan badiiy tafakkur mahsulidir. Rauf Parfi ezgu so'z vositasida bir-birini takrorlamaydigan, insonda estetik zavq uyg'otuvchi bir qator she'rlar yaratgan. Shoir takror orqali o'z she'rlarida o'ziga xos menini, alohida ijodiy yo'nalishini ko'rsatib bera olgan. Ijodkor she'riyatni har narsaga qodir kuch sifatida biladi. Buni shoirning quyidagi satrlarida ko'rish mumkin:

Har nega qodirdir sohir she'riyat,
Goh o'ngga evrilur, goho ro'yo, tush,
Kamolotga timsoli singari faqat
Tumanlarni kesib uchar vola qush².

Shuningdek, Rauf Parfi she'riyati o'zining bir qator badiiy tasviriy vositalarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Shunday vositalardan biri tovushlar takrori – assonans hisoblanadi.

Shoirning "Chingiz Aytmatov" nomli she'ri bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Uchqur otim og'ir-og'ir hansirar,
Ola ko'zlariga olam qorong'u.
Mendan tilsizgina bir narsa so'rar,
Yolvorib fikrimga termuladi u³

Ushbu she'rda assonans hodisasini *otim, og'ir-og'ir, ola, olam, qorong'u* so'zlaridagi "o" tovushi hosil qilmoqda. She'rdagi fonetik takror – assonansning ishlatilishi oddiy hodisa emas, balki ma'lum vazifani bajarib kelgan. Ya'ni, misralardagi tovushlar takrori ritmni kuchaytirgan hamda ohangdorlikni ta'minlash bilan birga she'rning butun mazmunini ochishga kalit vazifasini bajargan. Shoirning unli tovushlarni uyg'un tarzda qo'llashi bir tomondan ta'sirchanlikni oshirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z ichki tug'yonlarini, misralardagi voqelikni aniq tasvirlab berishga imkon yaratgan. Rauf Parfi ijodida uchraydigan yana bir asosiy uslubiy figuralardan biri alliteratsiyadir. Alliteratsiya nutqdagi tovush takrori demakdir⁴. Takrorning mazkur turiga shoir ijodidan juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, alliteratsiya hodisasi tashqi tomondan nutqni ta'sirchan qilishga xizmat qilsa-da, eng asosiysi misralardagi semantik ma'no hisoblanadi. Agar shoir faqatgina badiiy tasvir vositasiga muvofiq she'r yozadigan bo'lsa, kutilgan natija bermasligi mumkin. Alliteratsiyaga me'yorida ortiq ravishda zo'r berish ham she'rning ma'no tomoniga zarar yetkazishi mumkin. Rauf Parfi she'rlarida alliteratsiyaning ajoyib namunalarini ko'rishimiz mumkin. Alliteratsiya shoir misralarida semantik ma'no bilan muvofiq va mutanosib tarzda qo'llanilgan: "Qalqib-qalqib qo'yadi qarab", "Qorlarga qorishdi oqshom",

¹ Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand, 1994. 43-b.

² Rauf Parfi. Sakina. Saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2013. 99-b.

³ Rauf Parfi. Sakina. Saylanma. – Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2013. 132-b.

⁴ Suyun Karimov. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: 1994. 57-b.



“Qushlar, qushlar, qator-qator, Qushlar, uyga qaytingiz”, “Qirq yil qoraladim qog‘ozni”, “Qon ichib qonlarga qonganlar, keling...” kabi misralarda “q” tovushi; “Karvon-karvon kelib ketdilar”, “Kechalarning kechalik yodi Asta tongning mayidan ichar” misralarida “k” tovushi; “Tuman – tamaki tutunidek, go‘yoki dunyoning qayg‘usi” misrasida “t” tovushi, “Toshingni tayirdilar, Qoshingni qayirdilar, Seni mendan ayirdilar, Chag‘alay” misrasida “t” va “q” tovushlari, “Chekkil, cheksizlikning chegasi sanda”, “Chigirtkalar chirillar chunon” misralarida esa “ch” tovushi alliteratsiyaning go‘zal namunalarini yuzaga keltirgan. Shu bilan bir qatorda shoirning “Yong‘in” she‘ridagi “Yuzma-yuz, ko‘zma-ko‘z, izma-iz izg‘ir” misrasida takrorning mukarrar, “Yovuz yov, qattol yov qonga qonmoqda” misrasida alliteratsiya kabi ko‘rinishlariga guvohi bo‘lamiz. Yuqoridagi misralardan ko‘rinib turibdiki, bir xil tovushli so‘zlardan foydalanish she‘rning ma‘nosiga putur yetkazmagan, balki shoir fikrining yanada teran va jozibador chiqishiga sababchi bo‘lgan.

Shoir ijodida faqatgina tovushlar takrori emas, balki qo‘shimchalar, so‘zlar, misralar va bandlar takrorini ham uchratish mumkin. Shulardan biri rifmadir. “Rifma(qofiya)da qo‘shimchalar ham, so‘z yoki so‘z birikmalari ham takrorlanib kelaverishi mumkin”¹. Shoirning “Sayyod navo” turkumidagi quyidagi to‘rtlik rifmaning yorqin namunasi bo‘la oladi:

Onga gunoh, onga *shafqatdurur*, yo rab,
Onga ziyon, onga *rag‘batdurur*, yo rab,
Onga qayg‘u, onga rahmatdurur, yo rab,
Onga bunyod, onga g‘oratdurur, yo rab²

Mazkur to‘rtlikda rifma bilan birga anafora (“onga” so‘zi orqali) va epifora (“yo rab” birikmasi orqali) ham qo‘llanilgan.

Quyidagi she‘rida esa anafora qo‘llanilgan:
Kulrang bulut kezinadi jim,
Kulrang bulut o‘xshar uyqumga.
Kulrang bulut boshlaydi hujum,
Baqirib shivirlar ruhimga

Bunda anafora sifatida *kulrang bulut* so‘z birikmasi qo‘llanilgan. She‘rdagi asosiy ma‘no-mazmunni ham mana shu *kulrang bulut* tashkil etadi. Ba‘zan bu kulrang bulut osmonda jimgina kezadi. Buni shoir o‘z uyqusiga o‘xshatadi. Gohida esa shoirning ruhiga “baqirib shivirlaydi”. Aslini olganda “baqirmoq” va “shivirlamoq” fe‘llari bir-biriga zid ma‘noni anglatadi hamda antitezani hosil qiladi. Ya‘ni she‘rning ta‘sir kuchini yanada oshirish, tinglovchiga voqelikni yanada aniq, ko‘z o‘ngida jonli tasvirlash uchun ham shoir bir-birini inkor etuvchi so‘zlarni birgalikda yonmayon qo‘llaydi. Bunday misollarni Rauf Parfi ijodida ko‘plab uchratish mumkin.

Shoir “Pablo Neruda o‘limiga” nomli she‘rida ham so‘z takrorini yuksak mahorat bilan qo‘llaydi:

Uni o‘liklar o‘ldirdilar,
O‘ldirdilar shoirni. Insonni
Hayqir, hayqir, hayqir osmon –
Pablo Nerudaning so‘ngsiz osmoni³

She‘r orqali Rauf Parfi jahonning yetuk shoiri Pablo Nerudaning (ozodlikning) o‘limidan, qattiq iztirobda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ozodlik kuychisi bo‘lgan Pablo Nerudaning o‘limidan hasratda bo‘lgan shoir ushbu she‘rida achchiq haqiqatni ham aytib o‘tadi: “Yetim qilmoq bo‘ldilar ozodlikni. Faqat o‘zlarini yetim qildilar, Pablo”. Pablo Nerudaning dunyoga qaytib kelmasligidan kuyungan shoirning hasrati shu qadar kuchliki, she‘r misralarida qayta-qayta “hayqir, hayqir, hayqir”, deya “Pablo Nerudaning so‘ngsiz osmoni”ga murojaat etadi. Misralardagi takror shoirning ichki kechinmasini, tuyg‘ularini ochib bergan. Quyidagi she‘rida esa misralar takrorini kuzatamiz.

Shivirlama menga ey shamol,
Xuddi qalbim yonidan oqma
Shivirlama menga ey shamol,
Uzib yaproqlaringni otma.
Shivirlama menga ey shamol,

¹ Suyun Karimov. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand. 1994. 58-b.

² Rauf Parfi. Sakina. Saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2013. 229-b.

³ Rauf Parfi. Sukunat. She‘rlar. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 61-bet.



Qayga olib borurusan tag'in?
Shivirlama menga ey shamol,
O'tmishlarning ertagin¹.

Ushbu she'r sakkiz misradan iborat bo'lib, to'rt misrasida gap takrori qo'llaniladi. Banddagi misralarning takrori she'rning badiiyligini, musiqiyligini, emotsional-ekspressivligini kuchaytirib kelgan. Shoirning shamolga murojaati takroriy qo'llanilishi o'z tuyg'ularining tinglovchiga tezda yuqishiga xizmat qilgan. Shuningdek, tashxis san'ati orqali shamolni jonlantirib, tasviriylilikni oshirib kelyapti. Bu kabi banddagi misralar takrorini shoirning "Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar", "Tashqarida shovullar shamol" kabi she'rlarida ham kuzatishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shoir ijodi kutilmagan tashbehlarga hamda turli xil badiiy-tasviriyl vositalarga boy. Shoir ana shunday vositalar orqali tilimizning go'zalligini hamda keng imkoniyatlarini ochib bergan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rauf Parfi. Sakina. Saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2013. – B. 375.
2. Rauf Parfi. Sukunat. She'rlar. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B. 61.
3. Suyun Karimov. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand, 1994. – B.71.

¹ Rauf Parfi. Sukunat. She'rlar. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 61-bet.



О'ЗБЕК МУМТОЗ АДАБИЙОТИДА НОМА ЖАНРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ТАДРИЖИ

Xolmatov Olimjon Alisher o'g'li

Termiz davlat universiteti magistri

Telefon: +998(97) 874 96 66

olimxolmat7477@gmail.com

Annotatsiya. O'zbek adabiyotida noma janrining paydo bo'lishi, shakllanishi bosqichlari, takomili va badiiyati, bu janrda yaratilgan asarlar va ularning mualliflari, nomanavislik an'anasi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar Noma janri, "Alpomish" dostoni, maktub, Mahmud Koshg'ariy, "Devonu lug'atit – turk", "Muhabbatnoma"

Noma janri ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Chunki noma so'zi "xat, xabar, maktub" kabi ma'nolarini ham bildiradi. Qadimdan o'q katta-kichik davlatlar turli vositalar orqali xabarlar almashilgan. Nomaning ilk ko'rinishlari bizning yurtimiz tarixida yozma shaklda paydo bo'lmasdan ilgari, turli xil buyumlar vositasida ham ifodalangan. Bunga misol sifatida skiflar shohi Idanfrising eroniylarga yuborgan buyumlar — kamon o'qi, baqa, sichqon va qushdan iborat o'ziga xos "xat"ni eslash kifoya¹ Ba'zi rivoyatlarda esa bu voqealar Iskandar va Doro o'rtasida ham bo'lib o'tganligi aytiladi. Bunday "xat"larning tarixi juda qadimiydir.

Nomalarning ba'zi unsurlari xalq og'zaki ijodida ham uchramiz. G'o'ro'g'li turkumiga kiruvchi "Ravshan" dostonida Zulxumor o'z yorining ahvolini uning ota-onasiga bildirish uchun mayna orqali noma yo'llaydi va yordam so'raydi. "Alpomish" dostonida ham nomaning ilk namunasi mavjud. Qalmoqlar yurtida chorasiz qolgan Barchin o'zining nochor ahvolini bayon etib, Hakimbekdan yordam so'rab, unga noma yozadi va bu nomasini o'nta navkar orqali yuboradi.

Bundan tashqari yozma adabiyotimizda ham nomalarning ayrim jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit-turk" asarida ayrim so'zlarning izohini berar ekan, irqish so'zini "maktub, noma" ma'nosida qo'llaydi (1 jild 17-bet). Bundan tashqari, "Qo'shug'" so'ziga izoh berganda ham, lirik qahramon Turkxon xotunga noma yo'llab, xodimi xizmatga tayyor ekanini bildiradi.² Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida Kuntug'di elig tog'dagi g'orda zohidona hayot kechirayotgan O'zg'urmishga maktub yuborib, ubilan uchrashib, suhbatlashishni ixtiyor qilganini yozadi. Kuntug'dining bu xati ham noma janrining bir ko'rinishidir.³

O'zbek adabiyotida noma janrining shakllanishi fors adabiyotining bevosita ta'sirida bo'ldi. Fors tilida yozilgan Faxriddin Gurgoniy "Vis va Romin" dostonidagi "Dahnoma"si, Avhadiy "Dahnoma"si ("Dahnoma" yozish an'anasini boshlab bergan), Kirmoniy "Muhabbatnomai sohibdilon" kabi nomalar o'zbek adabiyotiga ta'sini ko'rsatdi.

O'zbek adabiyotida ilk noma janrining go'zal namunasi bu, shubhasiz, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidir. Ijodkorning o'zi haqidagi ma'lumotlar bizgacha deyarli yetib kelmagan. Hatto, uning asl ismini ham bilmaymiz, o'zi haqidagi boshqa ma'lumotlarni faqat asaridagina bilib olishimiz mumkin. U zullisonayn shoir bo'lib, turkiy va forsiy tilda ijod etgan. "Muhabbatnoma"da shoirning o'zi qayd etishicha, Oltin O'rda xoni Jonibekxonning Sirdaryo muzofotidagi hukmdorlaridan biri Muhammad Xojabek forsiy tilda she'rlar yozib, mashhur bo'lgan Xorazmiydan: "Bu qish mening yonimda yurib, bizning tilda (ya'ni turkiyda) bir kitob yozsang", - deb iltimos qiladi:

Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor,
Ochunda porsiy daftarlaring bor.
Muhabbat nardini ko'plardin uttung,
Shakartek til bila olamni tuttung.
Tilarmenkim, bizning til birla paydo
Kitobe aylasang bu qish qotimdo,-
Kim ush eldek kechar ayyomi foni,
Jahonda qolsa bizdin armug'one

¹ Раҳманов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. – Т.: 2007. – Б. 94.

² Маҳмуд Кошғарий. Девону луғат-ат-турк. Солиҳ Муталлибов таҳрири остида. I жилд - Т.: 1960. Б. 7

³ Раҳманов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. – Т.: 2007. – Б. 94



Albatta, “Muhabbatnoma” faqat nomalar yig’indisi emas, unda g’azal, qit’a, fard kabi kichik lirik janrlarga xos asarlar ham mavjud. Ammo asardagi o’n bir noma asar tuzilishining bosh xususiyatini belgilaydi. Shuning uchun ham bu so’z asar nomiga asos bo’lgan. Xorazmiydan so’ng nomanavislik an’anasini adabiyotimizda Xo’jandiy “Latofatnoma”si, Yusuf Amiriy “Dahnoma”si, Said Ahmad “Taashshuqnoma”si, Sayyid Qosimiy “Haqiqatnoma”si bilan davom ettirdi. Bundan tashqari, o’ziga xos uslub va mavzuda yozilgan, shoh va shoir Qul Ubaydiy ijodida ham ayrim nomalarni uchratamiz. Ahloqiy, ta’limiy, diniy mavzuda yozilgan “Salovatnoma”, “G’ayratnoma”, “Sabrnoma”, “Zavqnoma”, “Omonatnoma”lar shular jumlasidandir.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, nomalarning ilk ko’rinishlari juda sodda bo’lsa ham, ma’lum vaqtlar o’tgandan so’ng adabiyotda alohida janr sifatida shakllandi va an’anaviylik kasb etdi. U dastlab fors adabiyotida yaratilgan bo’lsa ham, o’zbek mumtoz adabiyotida salmoqli o’rinni egalladi va bu janrda bugungi kunimiz uchun juda qimmatli asarlar bitildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғат-ат-турк. Солиҳ Муталлибов таҳрири остида. I жилд - Т.: 1960.
2. Раҳманов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. – Т.: 2007.
3. АБДУЛЛАЕВ М. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти диссертация. – Т.: 2009
4. Исҳоқов Ё. Хоразмий ва унинг «Муҳаббатнома» асари// Ўзбек адабиёти тарихи. I том. - Т., 1976.
5. Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. - Т.: Фан, 1972.



FUNCTIONAL-SEMANTIC APPROACH TO THE STUDY OF THE CATEGORY OF NUMBER IN LINGUISTICS

Raupov B.V.,

2nd year undergraduate student SamSIFL

Annotation. This article presents a structural-semantic approach to the study of the category of number in linguistic science. The conditions for the formation of various quantitative meanings within the framework of a sentence-statement are analyzed, which makes it possible to identify the content of the concept, the quantity, represented by a set of basic and particular characteristics.

Key words: language, thinking, language system, thought processes, functional-semantic approach, category of number, quantity.

It should be noted that a person's comprehension of objective reality is aimed, first of all, at identifying ontological premises and sociocultural foundations of human thinking, which subsequently initiates an analysis of his categorical structure. The category of quantity is one of the most important ontological categories that permeate all human existence, performing a methodological and ideological role. Various philosophical and linguistic schools have described the relationship between language and thinking, as well as their interaction. Numerous languages, radically different from each other in grammatical structure, features of morphology and vocabulary, freely express thought processes. The language system includes many linguistic elements that are in relationships and connections with each other, which forms unity and integrity [5, 452]. The system is an ordered and internally organized set of interconnected and interacting objects that form an integral complex and are subordinate to the relations of the hierarchy [2, 17].

It is known that the knowledge of the world (both scientific and everyday), realized in the processes of its conceptualization and categorization, leads to the design of various separate structures of knowledge, as well as their associations (integral unities) - formats of knowledge. The cognitive approach postulates the need to constantly correlate various formats of knowledge with the linguistic forms that objectify them. As a result, researchers focus on two fundamental questions: what structures of knowledge are behind certain linguistic forms (ie, what are the cognitive foundations of these forms) and with the help of what linguistic forms certain formats of knowledge are represented [7].

Problems related to the study of correlations between linguistic and cognitive structures are central to the study of the process of conceptualizing quantity in modern English. It is possible to identify the specifics of the formation of human knowledge about the quantitative aspects of reality, that is, to study with what means the quantity is conceptualized in modern English, it seems possible through the analysis of the semantics of different-level linguistic units, taking into account the interaction, on the one hand, the linguistic mechanisms of conceptualization and cognitive mechanisms of the formation of quantitative meanings and, on the other hand, additional linguistic factors.

The role of language in the formation of structures of knowledge, which have different significance for the functioning of the conceptual system, is different. It is known that the most important structures of knowledge are objectified and stored in linguistic form. Language still remains the best window to knowledge, since it is observable, amenable to analysis, and thus offers a good opportunity to analyze knowledge, acting as a means of access to the work of consciousness [1; nine; 10; 7]. The language not only ensures the flow of a large share of information into the conceptual system, but also helps to bring together and summarize all the information coming through other channels. Thus, "the language provides access to all concepts, regardless of how they are formed, itself, remaining only one of the possible ways of forming concepts in the human mind" [3, 27]. The basic provisions of the theory of conceptualization make it possible to explain the features of the conceptualization of quantity by means of the modern English language. The specificity of the conceptualization of quantity lies in the fact that this process takes place in two stages (concrete-sensory, complex) and is carried out at three levels (quantitative representation, the quantitative concept of non-discreteness / discreteness) [11; 6].

An analysis of the conditions for the formation of various quantitative meanings within the framework of a sentence-statement made it possible to identify the content of the concept of



quantity, represented by a set of basic and particular characteristics. The revealed conceptual characteristics in their totality give only a general idea of the content of the concept of quantity in the minds of native speakers. In addition, since no concept can be fully expressed in speech, the linguistic means representing the concept of quantity reflect only part of its conceptual content.

Bibliography:

1. Chafe W. Meaning and the Structure of Language / W. Chafe. - Chicago, London, 1971. -406 p.
2. Melikova M. N. History of philosophy: textbook. DOI: http://doi.org/10.37057/M_13_1, Primedia E-launch Shawnee, USA 2021.187.
3. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. - М.: Высшая школа, 1991. - 140с.
4. Болдырев, Н.Н. Категориальное значение глагола: Системный и функциональный аспекты / Н.Н. Болдырев. - СПб., 1994а. - 171 с.
5. Болдырев, Н.Н. Функциональная категоризация английского глагола: Дис. ... д-ра филол. наук, 10.02.04: / Болдырев Николай Николаевич; СПб., 1995.-445 с.
6. Булыгина Т.В., Крылов С.А. Система языковая // Языкознание. Большой энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. - М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. – С.452-454.
7. Иволгина, СВ. Категория количественной квалификации действия в системе английского глагола: Дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. / Иволгина Светлана Владимировна. - Тамбов, 2001а. - 187 с.
8. Кубрякова, Е.С. Словообразование/ Кубрякова Е.С. //Общее языкознание: Внутренняя структура языка. - М.: Наука, 1972. - С. 386-393.
9. Кубрякова, Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова / Е.С. Кубрякова. - М.: Наука, 1981. - 200 с. Лепская, Н.И. Категория количества: её формирование в онто- и филогенезе/ Лепская Н.И. // Структуры языкового сознания. - М., 1990. - С. 277-290.
10. Павилёнис, Р.И Проблема смысла: современный логико-философский анализ языка / Р.И. Павилёнис. - М.: Мысль, 1983. - 289с.
11. Павиленис, Р.И. Язык. Смысл. Понимание / Павилёнис Р.И. // Язык. Наука. Философия. Логико-методологический и философский анализ. - Вильнюс, 1986. - С. 240-263.
12. Сайфуллаев, Н.М. Логический анализ понятия количества: Дисс. ...канд. филос. наук: 09.00.07 / Сайфуллаев Нигматулла Мирзоевич. - М., 1974.- 130 с.



CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA UNING SAMARADORLIGI

Aminova Sitora

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
3-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
fransuz tili fani o'qituvchisi
sitoraaminova08@gmail.com
tel:+998976030690

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tili dars jarayonlarida jumladan fransuz tilli dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uning afzalliklarini tatbiq qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: Chet tilli, zamonaviy texnologiyalar, motivatsiya, innovatsion texnologiyalar, kommunikativ axborot vositalari, internet.

So'ngi yillarda chet tillarini o'rganishga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Bunga davlatimizning mustaqillikdan keyin chet tillarini rivojlantirishga qaratilgan farmon, chora va tadbirlari ham sabab bo'lmoqda. Ayniqsa birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 2012-yil 13-dekabrda PQ1875-sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Bu esa biz chet tili o'qituvchilari oldida o'quvchilarga chet tiliga qiziqishini oshirish uchun chet tili darslarida turli innovatsion metodlardan, texnika vositalaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida ro'lli o'yinlardan foydalanishdir. Ro'lli o'yinlar bu real hayotimizdagi turli situatsiyalarni chet tili o'rganish jarayonida qo'llashdir. Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi. Men dars jarayonida ro'lli o'yinlardan juda ko'p foydalanaman. Masalan:

1. Je montre une photo de ma famille a une camarade et je joue la scene. Exemple :C'est qui, elle ? –C'est ma soeur.

Elle s'appelle comment ? –Elle s'appelle Elodie.

Elle a quel age ? – Elle a 14 ans

2. Deux par deux, choisissez un type d'energie et cherchez des informations sur son fonctionnement, ses avantages, ses inconvenients. Jouez une scene d'interview pour presenter les resultats de vos recherches.

Chet tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan :

-Kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin ;

-Chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlarni eshitish va tamosha qilish mumkin ;

-CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. Men dars jarayonida rolli o'yinlardan juda ko'p foydalanaman. Masalan: Echanges au restaurant. Imaginez et rédigez deux brefs dialogues.

1. Le cliente commande les plats et la boisson. Elle demande conseil au garson.

2. Apres le repas, le garson demande l'appréciation de la cliente . Elle répond et demande l'addition etc.

Rol o'ynash – bu bir vaqtning o'zida nutq, o'yin va ta'lim faoliyati. O'quvchilar uchun rolli o'yin bu turli xil rollarni bajaradigan o'yin faoliyati. O'qituvchi uchun o'yinning maqsadi o'quvchilarning nutq qobiliyatlari va qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Rolli o'yin aloqa jarayonida amalga oshiriladigan shaxslararo munosabatlarga asoslangan. Shaxslararo muloqot modeli sifatida rol o'ynash muloqotga bo'lgan ehtiyojini uyg'otadi, chet tilida muloqotda ishtirok etishga qiziqishni uyg'otadi va shu ma'noda u motivatsion va rag'batlantiruvchi funksiyani bajaradi. Rol o'ynash bu shaxslararo muhitda ko'nikma va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun mashqdur. Rolli o'yinlarning maqsadi, o'quvchilarda ongli intizom, mehnatsevarlik, o'zaro yordam, faollik, har xil faoliyat turlari bilan shug'ullanishga tayyorlik, mustaqillik, o'z nuqtai nazarini himoya qilish,



tashabbus ko'rsatish, muayyan sharoitlarda maqbul yechim topish qobiliyati tarbiyalanadi ya'ni rol o'ynashning tarbiyaviy funksiyasidir.

Rolli o'yinlardan foydalanishning afzal tomonlari :

a) O'quvchilarning faolligi. Bunda hamma o'quvchilar o'yinda qatnashadilar bir-birlari bilan yaqin aloqada bo'lib bu o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda qulay iqlim yaratishiga yordam beradi.

b) O'quvchilar rollarini o'zgartirish imkoniyatiga ega, bu ularga til materialidan to'liqroq foydalanish, tilda muloqot qilishda o'z mahorat va ko'nikmalarini oshirishga imkon beradi.

Rolli o'yin o'quvchilarning bir-birlari bilan va o'qituvchi bilan aloqa qilish istagini faollashtiradi, nutq madaniyatini shakllantiradi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'siqni yo'q qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. www.didieraccord.com
2. www.lepointdufle.net
3. Jirardet, Jean-Marie Cridlig.
4. "Panorama de la langue francaise" Clé International, Paris 2004.



ИНФОРМАЦИОННЫЕ И МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ

Болтаева Нигора Нуруллаевна

учительница русского языка и литературы школы
№-19 Ургенский района

Образование – это фактор, влияющий на уровень развития человеческого капитала и, следовательно, страны. Поэтому состояние образовательной системы, соответствие задачам экономического и общественного развития страны входят в число приоритетов государственной политики в Узбекистане. Подтверждением этому служит принятая в республике Национальная программа подготовки кадров. Речь идёт о новом взгляде на образование как систему воспитания компетентного и мобильного человека, способного найти профессиональную, социальную и психологическую нишу в быстро изменяющихся общественных, информационных и технологических условиях. Выпасть из общемирового процесса в данном случае – значить ограничить потенциал развития народа и государства, общества и отдельно взятой личности. В любом цивилизованном обществе, наряду со знанием родного языка, всегда ценилось и ценится знание иностранных языков. В связи с изменением социальной роли языка, отсутствием русской языковой среды, особенно, в сельской местности, урок стал основным источником приобретения знаний, формирования умений и навыков общения на русском языке. Научить нерусского ребёнка говорить по-русски, читать книги, любить русский язык нелегкое дело, нужна большая любовь к профессии, знание детской психологии, терпение – все эти качества должны быть у учителя. Перед современной школой стоит важная задача – подготовить подрастающее поколение, способное активно включиться в качественно новый этап развития информационного общества. ИКТ сегодня – универсальное средство обучающей деятельности, позволяющее строить индивидуализированное обучение на основе модели учащегося, учитывающей историю его обучения и индивидуальные психофизиологические особенности памяти, восприятия, мышления. Компьютер проник во все сферы человеческой деятельности, в том числе в школьную жизнь. Но вместе с тем у учителей возникло множество вопросов. Как с помощью компьютера представить на уроке материалы? Может ли учитель сам с помощью компьютера создавать дидактический материал, если накоплено много текстовой, иллюстративной информации? Как использовать компьютер рационально, чтобы он не стал просто модным украшением кабинета? Если рассматривать урок как социальный заказ общества системе образования, то сегодня мы вышли на уровень, когда компьютерная грамотность выпускника школы должна быть достаточна для того, чтобы свободно работать на персональном компьютере в качестве пользователя. Это потребность, продиктованная временем, уровнем развития экономики и нравственными ценностями общества. Прошло время, когда можно было сообщать знания. В обучении особый акцент ставится сегодня на собственную деятельность ребенка по поиску, осознанию и переработке новых знаний. Учитель выступает как организатор процесса учения, руководитель самостоятельности учащихся, оказывающий им нужную помощь и поддержку. Чтобы заинтересовать ребят изучением русского (как иностранного) языка, рекомендуется организовать учебный процесс таким образом, чтобы высокую мотивацию и обеспечил их активность на уроке. Интерес к предмету «русский язык» желание овладеть им, зависят в большей степени от того, какая технология используется, как учитель учит и, как учатся у него ученики. Высоко эффективным, творческим, реализующим разнообразные формы развития воспитания и обучения, является применение компьютерных технологий на уроках русского языка. Известно, что обучаемый с первого раза запоминает лишь четверть услышанного и треть увиденного. При комбинированном воздействии на слух и зрение запоминается половина. А при вовлечении обучаемого еще и в активные действия (например, при использовании интерактивных мультимедиа-технологий) доля усвоенного может оставить 75%. Но многие преподаватели используют компьютер только для демонстрации отдельных слайдов, текстов, хотя это можно сделать с помощью книги, избежав неразумной траты времени и электроэнергии. С помощью компьютера учитель получает возможность постоянно



наблюдать за качеством усвоения знаний, умений и навыков учащихся, вести строгий учет, осуществлять индивидуальный подход к каждому учащемуся, вести непрерывный контроль за конечным результатом обучения и осуществлять анализ действий учащихся в решении тех или иных задач, в случае затруднений оказывать нужную данному ученику помощь. В настоящее время информационные технологии позволяют абсолютно по – новому подойти к преподаванию любого предмета, но при условии создания эффективных обучающих и контролирующих программ. Это самая проблемная задача в наше время. Для её решения требуется объединение сил специалистов по различным отраслям знаний: учителей, программистов, психологов, методистов И эти программы должны соответствовать учебным материалом конкретного предмета, а также помочь ученику получить знания, указанных в программах. Например, учебные материалы по русскому языку готовящиеся в компьютере должны четко определить конкретную учебную цель, которая сообщается учащимся, чтобы при работе с ними у них возник интерес к занятиям. Для этого необходимо разработать график проведения практических занятий в компьютерном классе по календарно – тематическому плану, где указываются сроки, периодичность проведения всех видов контроля.... Но как каждая методика, особенно новая, современная мультимедийная система образования имеет свои преимущества и недостатки. Например, отсутствие непосредственного контакта между обучающим и обучаемым, на наш взгляд, затрудняет восприятие и реализацию учебного материала, а также виртуальная электронная среда обучения русский как иностранный исключает из когнитивного процесса стадию мысленного достраивания воспринимаемой картины. Возможно, это и ускорит процесс восприятия речевого материала и невербальной информации, но у учащихся не возникает потребности описания данной когнитивной деятельности. Из всего сказанного следует, что прямой оппозиции дистанционного обучения и реального преподавания не существует. Подводя итоги, мы можем сказать, что использование мультимедийное приложение на уроках русского языка целесообразно. Они помогают решать многие задачи, которые ставит перед нами система образования. Мы надеемся, что работа с мультимедием как средством обучения русскому языку войдет в повседневную практику преподавания во всех учебных заведениях. Для этого уже создаются необходимые предпосылки, и постепенно из плоскости разговоров и теоретических поисков использование информационных технологий в обучении русскому языку получает в нашей стране реальное воплощение. Кроме того, использование компьютера применимо ко всем языкам и на всех уровнях обучения, при формировании различных навыков обучения



TIL MADANIYATI VA NUTQ MADANIYATI

Djumaniyazova Surayyo Yaxshimuratovna

Ko'palova Barno Kadamovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

15-son umumiy o'rta ta'lim maktabi o'zbek tili fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili madaniyati va nutq madaniyati bilan bog'liq jarayonlar, ularning bir biridan farqli jihatlari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: tili madaniyati, nutq madaniyati, adabiy til, nutq, til, me'yor, sheva.

Tilshunoslikda ko'pincha "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalari ma'nodosh tushunchalar sifatida qo'lanadi. Holbuki, nutq bilan tilga alohida-alohida hodisalar sifatida qaraladi, bunda til madaniyati va nutq madaniyatini farqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Til madaniyati tilning "madaniylashganlik", adabiylashganlik, normalashganlik darajasini, lug'at tarkibi, grammatik, semantik, stilistik jihatlaridan rivojlanganlik, boylik darajasini, ifoda imkoniyatlarining ko'lamdorligini ifoda etadi. Nutq madaniyati esa tildan bemalol, maqsadga o'ta muvofiq va ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacharoq aytganda, nutq madaniyati tilda potensial mavjud bo'lgan xilma-xil shakllardan fikr uchun eng zaruriylarini, uyg'unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq tuza olish mahoratidir. Demak, bu mahorat tilni estetik jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi, chunki til nafaqat kommunikativ (odamlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lish) vazifani, balki estetik (tilning go'zal jihatlari ifodalash, atrofdagilarga ta'sir o'tkazish) vazifasini ham bajaradi.

Tilning estetik vazifasi kommunikativ vazifa bilan birgalikda adabiy me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Adabiy til me'yorlari so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi axborot jarayonida tildagi barcha so'z, ibora va jumalarni, tilning barcha ifoda vositalarini to'liq anglash imkonini beradi.

Tabiiyki, umumxalq o'zbek tili – bu uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, ammo "me'yorlashtirilmagan" tildir. Adabiy til esa ana shu xalq tilining ma'lum me'yorlarga solingan, "oro berilgan", sayqallangan shaklidir. O'zbek adabiy tili xalq tili asosida shakllangan. Manbalarda o'zbek adabiy tili fonetik jihatdan Toshkent shevasi asosida, leksik morfologik jihatdan Farg'ona vodiysi shevalari, ya'ni qarluq-chigil lahjalari asosida tashkil topgan deyiladi. Biroq shuni ham e'tirof etish lozimki, adabiy tilimizning tarkib topishida qipchoq va o'g'uz lahjalarining ham xizmati katta. Bu lahjalarga xos bo'lgan ko'plab so'zlar, shuningdek -ning qo'shimchasi (qipchoq), -yotir qo'shimchasi (o'g'uz) fikrimizga yorqin misoldir.

Odatda biz ommaviy axborot vositalari, ya'ni televidenie va radio xodimlari faqat adabiy tilda so'zlashishlari kerak, degan e'tirofni ko'p eshitamiz. Bu gap, albatta, to'g'ri, ammo to'liq emas. Uning to'g'riligi shundaki, darhaqiqat televizor yoki radio orqali chiqish qilayotgan suhandon va muxbirlar o'zbek adabiy tilida so'zlashlari kerak. To'liq emas, deganda esa shuni nazarda tutganmizki, nafaqat OAV vakillari, balki ko'pchilik o'rtasida nutq so'zlayotgan har qanday kishi albatta adabiy til me'yorlariga amal qilib gapirishi kerak.

Adabiy til me'yorlarining mustahkamlanishida, jamiyat a'zolarining unga amal qilishlarini targ'ib etishda avvalo, bog'cha va maktab, qolaversa, litsey, kollej, oliy ta'lim muassasalari, televidenie, radio, gazeta va jurnallarning alohida o'rni bor. Albatta, madaniy nutq tarbiyasini shakllantiruvchi vosita sifatida dastlabki o'rinda bolalar bog'chasini tilga olishimizning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Binobarin, bola tilning ma'lum qonuniyatlarini, undagi unli va undoshlar talaffuzini, so'zlarni go'daklik paytidanoq o'rganib, o'zlashtira boshlaydi.

Bizga ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lib, insonda til va nutqning shakllanishida uning atrofni o'rab turgan muhit yetakchi o'rinni egallaydi. Demak, bolani o'rab turganlar qaysi til yoki qanday shevada so'zlashsa, bolaning tili ham, tabiiyki, o'sha sheva doirasida chiqib, rivojlana boshlaydi. Keyinchalik o'sha bola xoh o'qituvchi bo'lib yetishsin, xoh artist bo'lsin, baribir uning tilida o'zi mansub bo'lgan sheva elementlari saqlanib qoladi. Hatto adabiy tilni o'rganish va mukammal o'zlashtirishga qasd qilgan odamni ham sof adabiy tilda so'zlashga o'rgatish ancha qiyin kechadi.

Adabiy til ma'lum qo'shimchalar, grammatik kategoriyalarning qo'llanilishidagi bir xilligi, barqarorligi bilan umumo'zbek xarakterida bo'ladi va sheva, jargon, aksent kabi har qanday nuqsonlardan xoli bo'ladi.

Til aloqa materiali, nutq esa aloqa shaklidir.



Tilni xalq yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi.

Tilning xayoti uzoq-xalq hayoti bilan bog'liqdir. Nutqning hayoti esa qisqa bo'lib, u aytilgan paytdagina mavjuddir.

Ayrim shaxsning ayni paytda bir necha tili bo'lishi mumkin, chunki u vaqt va joy bilan bog'liq emas. Nutqi esa bir vaqtda faqat bitta bo'ladi, chunki u ma'lum bir vaqtda va ma'lum o'rinda yuz beradi.

Tilning hajmi noaniqdir, nutqning hajmi esa aniq: u manolog, dialog, matn, kitob shaklida bo'ladi.

Til turg'un statistik hodisadir. Nutq esa harakatda bo'lishi mumkin bo'lgan dinamik hodisadir.

Tilning madaniyati uning so'z boyligi, sintaksisning taraqqiyoti va boyish darajasi, so'z ma'no-larining o'tkirligi, nutqiy ohangning rang-barangligi tushuniladi. Nutqning madaniyati esa, uning aloqaviy fazilatlarini yig'indisi va tizimi bo'lib, ular til madaniyati, faoliyatida qiynalmaslik, matn-ning mazmuniy vazifasi va imkoniyati kabi har-xil sharoitlarga bog'liq. Insonning nutqiy faoliyati uch ko'rinishda amal qiladi. Bular: so'zlash, muomala va eshitish.

Jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini yetishtirishda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Jamiyat o'qituvchining qo'lga yosh avlodni, o'z kelajagini – ishonib topshiradi. Uning kamol topishida o'qituvchining dunyoqarashi, ongi, madaniyati, nutqi belgilovchi vositalar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari
2. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati.
3. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati.
4. www.pedagog.uz



ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Досчанов Хамдам Бекчанович

Учитель общеобразовательной школы N 23

Шаватского района Хорезмской области

hamdamduschanov@gmail.com//99-567-70-11

Аннотация: статья посвящена проблемам как вести инновационные уроки русского языка.

Ключевые слова: медиаурок, мультимедиа, фотоматериалы, графические изображения. В последнее время в нашей республике в связи с ростом ресурсов информационной технологии в систему учебного процесса, все больше и больше вводятся инновационные технологии.

По этой причине в системе народного образования начали обучать учеников по новому методу-медиаурока. Он как средство учебы помогает учителям планировать и ввести учебу техническими средствами и информационной технологии-мультимедиа. Они играют большую роль как наглядное пособие, ученик быстро усваивает и запоминает тему и весь материал урока. Потому что фотоматериалы, графические изображения, воспроизведения, повтор пройденных материалов учит школьников мыслить, развивать практические навыки, лучше усваивать тему и материал урока.

Проведение урока-игры требует от учителя точного расчета времени, тщательного продумывания каждого момента урока и конечно заранее подготовленного или подобранного игрового материала (это могут быть плакаты, рисунки, карточки-задания, кубики, мозаика, муляжи, буквы, цифры, абстрактные фигурки, таблицы, сказки, ребусы, кроссворды и т.д.)

Главное на этих уроках - включить учеников в интересный процесс познания, увлечь необычной ситуацией, активизировать их способности, память, воображение, чувства.

Можно ещё проводить такие игры как «Слог за слогом», «Между буквами», «Наборщик», «Корректор», «Угадай слово», «Найди ошибки» и т.д. Как говорят сами названия, эти игры не только учат правильно произносить и писать слово, но и развивают внимательность, улучшают зрительную память, активно пополняют лексический запас ученика, совершенствуют технику чтения.

При изучении предлогов в и на можно, например, использовать игру «Будь внимателен». Учитель читает предложение, а ученик на слух должен вставить нужный предлог.

Игру «Он или Она» можно провести при изучении темы «Кто он? Кто она?». Учитель называет слово, а ученики должны поднимать карточки со словами «Он» или «Она». Возможен другой вариант: учитель предлагает назвать слова, отвечающие на вопрос «Кто он?» или «Кто она?», а ученики называют слова.

Очень эффективно проходят уроки с использованием кроссвордов и ребусов, которые учащиеся любят разгадывать. Можно задать на дом составить самим кроссворд или ребус, которые затем можно разгадывать классом. Наиболее интересными в этом плане игры являются «Что? Где? Когда?», «Поле чудес», «Угадай мелодию», «Звёздный час» и т.д.

Эти игры направлены прежде всего на развитие устной речи. Для развития памяти и быстроты чтения можно использовать игру «Кто лучше». В этой игре двум ученикам дают микротексты. Каждый ученик читает, а учитель по секундомеру засекает время. После этого первый ученик пересказывает текст второго, а второй-текст первого. А класс является судьёй с правом дополнения ответов состязавшихся. Выигрывает ученик, быстрее другого прочитавший и лучше другого рассказавший свой текст.

Используя этих игр на уроках, учителя стремятся развивать у учащихся умение размышлять, обогатить новыми знаниями, формировать думающую личность, расширять кругозор, приобщать к общечеловеческим ценностям

Наглядный способ обучения учеников средствами инновационно-информационной технологии дает желаемый эффект. Они притягивают слушателей, которые становятся участниками учебного процесса. Ученики имеют возможность овладеть техническими средствами.

Это значит, что они могут свободно владеть компьютерной техникой, внедрять в



учебную практику информационно-коммуникационные технологии, вести уроки средством мультимедии.

Литературы :

1. Инновационные технологии на учебных занятиях. Изд-во Моск ун-та. 2008г
2. K.Usmonova, Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar, Toshkent-2004-y



FILOLOGIYA FANLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LIDAGI ISLOHOTLAR

Mahmudova Barno Boqijanovna

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani

34-son umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

Tel: +998 99 975 87 79 email: barnomahmudova1987@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada filologiya fanlarini rivojlantirish uchun qilinayotgan ishlar, qabul qilingan qonunlar, qator ustuvor vazifalar haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: filologiya, chet tili, ta'lim, islohot, axborot texnologiyalari, dars.

Filologiya – fanlarini rivojlantirish masalasi bugungi kunning eng muhim dolzarb masalalaridan biri bo'lib, til o'rganishga astoyidil e'tibor qaratilgan. 2021-yilning 6-may kuni prezident raisligida bo'lib o'tgan chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektrda bir qator ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Jumladan

-Vazirlar Mahkamasi xuzurida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tuziladi;

-har bir viloyatda bittadan universitet chet tillari bo'yicha tayanch oliygoh sifatida belgilanadi;

-keyingi 3 yil davomida maktablardagi jami 53 ming nafar chet tili o'qituvchilari xalqaro sertifikat olishlari zarur;

yuqori ball olgan o'qituvchilarga o'qish xarajatlarining bir qismi qoplab beriladi;

-chet tillari bo'yicha eng yaxshi ko'rsatgichlarga erishgan maktablarni rag'batlantirish uchun Prezident sovrini ta'sis etiladi. Tuman/shahar g'olibiga 100 mln, viloyat bosqichida g'olib bo'lgan maktabga 200 mln, respublikada birinchilikni qo'lga kiritgan maktabga esa 500 mln so'mgacha mukofot beriladi.

Ta'lim tizimidagi har qanday yuksalish ta'lim tizimining rivojidir. Zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, ilg'or g'oyalarning muallifi bo'lsagina ta'lim tizimi rivojlanadi va yuksalish bo'ladi. Ta'lim tizimida til o'rganish muhim masalaga aylanib bormoqda. Tobora yildan yilga O'zbekistonimizda barcha sohalariga aynan til o'rganishga juda kuchli e'tibor qaratilmoqda. Turli hil turda o'qitish usullari yo'lga qo'yilgan bo'lib, masofaviy o'qish va o'qitish imkoniyatlari berilgan va amal qilinmoqda. Bu yo'nalishda maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalq ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, yani o'quv ta'lim tizimiga o'zgarishlar kiritilgani ko'pgina yoshlarni bilimga, fikrlashga, keng tafakkurli bo'lishiga undadi. 1- 11-sinflarda ingliz tillarini o'qitishni takomillashtirish shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 10-dekabrda "chet- tilini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarorida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini uzluksiz o'rganish va shuningdek barcha sohadagi ta'lim tizimini mukammal o'rganish uchun zamonaviy o'quv uslub materiallari bilan taminlash zarurligi alohida takidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida "Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarda o'qitish shu tillarda so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro xamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart sharoit va imkoniyatlar yaratish takidlangan. Filologik fanlarni o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tez til o'rganish, tez gapirish global axborot tizimining rivojlanish samaradorligi xalq ta'limi rivojining muhim masalasi desak mubolaga bo'lmaydi.

Ma'lumki chet tilini o'rganayotgan shaxs o'z tilini mukammal egallagan bo'lishi lozim. Chunki dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan elektron doska, proyektor va kompyuterdan foydalanib dars o'tish jarayonida o'quvchilarning chet tiliga bo'lgan qiziqishi undagi murakkab so'zlarni ko'z o'ngida yaqqol ko'rib anglab tushinishlari bu albatta bugungi kundagi shart sharoitlardan to'g'ri foydalanganimiz samarasi va ta'lim tizimining talab darajasidagi muhim masalasidir. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonimizda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish istiqbollariga nazar tashlab, til o'rganishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish va ta'lim sifatini yanada rivojlantirish filologiya fanlarining eng muhim vositasidir. Jumladan chet tili fanlarini o'qitish uchun yaratilgan darsliklar asosan an'anaviy usulda yaratilgan bo'lib, ular grammatika, tarjima, metodikaga asoslangan.

Bugungi kunda yoshlarni ta'lab darajasiga ko'ra, asosiy maqsad yoshlarni chet tillarida



gapirishga, oddiy muloqot qilishga, o'rgatishdir. Umumyevropa standarti bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda interfaol kommunikativ metodlardan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Haqiqatdan ham, darsga qo'yilgan ta'lim talablarini bajarish va o'quv materiallarini mustahkamlashda o'qituvchi uchun darslik eng yaxshi yordamchi vosita hisoblanadi. Sifatli darslikning har bir mavzusi o'ziga hos yahlit va to'liq o'quv materialini o'zida qamrab oladi. Ta'lim tizimida o'qitishning yana bir asosiy usuli o'rganuvchilarni kommunikativ integrativ yondashuv orqali shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ushbu maqsadga erishish uchun til o'rganayotgan kishi albatta o'zining qobiliyatini rivojlanishiga albatta ahamiyat beradi.

Ta'lim tizimida ta'lim berishda maktab dasturida filologiyani rivojlantirish usullari tubdan o'zgarib, yurtimizda axborotlashuv vositalari chuqurlashib, keng ko'lamda ommalashtirilib, ilmiy faoliyatimizni yanada mustahkamlashtirib, kommunikativ texnologiyalar yordamida yuritish, ta'lim sifatini oshirish, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Jumladan shuni aytish lozimki, ta'lim berish, ta'lim olish jarayonlari, egallagan sohamizni chuqur o'rganib, bugungi kunning axborotlashuv vositalaridan muntazam ravishda foydalanib, yo'nalishimizni mukammal bilish, barcha ta'lim sohasidagi pedagog kadrlarning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning videoselektor yig'ilishidan.
2. Internet malumotlari.



КО'ЧМА МА'НО ВА ULARNING TURLARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH

Otamurotova Zuxra Ismoilovna
Xayitova Dilnoza

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
27-son umumta'lim maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarga ko'chma ma'no va ularning turlarini o'rgatish haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: ko'chma ma'no, metafora, metonimiya, sinekdoxa, ifodalash, til.

Nutqni ko'chma ma'no va ularning turlarisiz tasavvur etish qiyin. So'zlar o'z ma'nosi bilan bartaraf bo'lsalar ham, ammo uslubiy ma'no ifodalashi uchun ularning ma'nosi kontekstda ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Gulning chiroyli belgisi odamga (gul yuz), o'rin joyga (gulbog'), biror harakatga (qo'li gul) ko'chiriladi, natijada gul so'zi qo'shimcha uslubiy mazmun oladi. So'zning o'z ma'nosidan ko'chishi, uslubiy mazmun olishi ko'proq badiiy uslub, ba'zan publitsistik uslub va o'rni bilan og'zaki so'zlashuv tilida uchraydi.

Borliqdagi narsa hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaziyatda bitta nom bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning nomi sifatida hizmat qiladi. Masalan, burun so'zi "tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi" ma'nosini ifodalaydi, shu bilan birga, burun, yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi" ma'nosini ham bildiradi. Predmetlar o'rtasidagi tashqi o'xshashlik (yuz qismidan bo'rtib chiqqan burun bilan yer qirg'og'ining dengiz yoki okeanga qarab bo'rtib chiqishi o'rtasidagi o'xshashlik) birining nomini ikkinchisi o'rnida qo'llashga asos bo'lgan.

So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishiga ma'no ko'chishi deyiladi. Ma'no ko'chishining nima asosda ro'yobga chiqishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa singari turlari mavjud. So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanish usullari quyidagicha:

I. Metafora (ko'chirish). Bir narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi boshqasiga o'zaro tashqi yoki ichki o'xshashlik asosida ko'chirilishi metafora deyiladi.

a) bir narsaning nomi boshqa narsaga o'xshashlik asosida ko'chiriladi: majnuntolning sochi, ko'chaning boshi, qozonning qulog'i, egarning qoshi, uzukning ko'zi, qumg'onning burni, o'choqning og'zi, arraning tishi, kitobning yuzi, ariqning labi.

Metafora bo'yicha darslikdagi mashqlar quyidagicha bajariladi:

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi... Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi.

Tahlil: Ushbu matnda ko'chimlar talaygina. Unda insonga xos dildirash (sovqotish), qitiqlash kabi xususiyatlar insondan boshqa narsalarga metafora, ya'ni o'xshashlik asosida ko'chirilgan. Bunda harakat o'xshashligi ham kuzatilgan.

II. Metonimiya (qayta nomlash). Metonimiya (yunoncha «qayta nomlash», «nomini almashtirish») narsa yoki hodisalarning makon va zamonda o'zaro bog'liqligi, doimiy aloqadorligi asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chishidir. Bunda narsa, harakat va belgi o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik emas, balki doimiy aloqadorlikning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi.

III. Sinekdoxa (birgalikda anglash). Butun orqali qismni yoki qism orqali butunni ifodalash, anglatish sinekdoxa deyiladi. Uning ikki turi mavjud.

1) *bo'lak (qism) orqali butunni ifodalash:* Bitta tuyuq bilan olti qorinni boqib kelyapman.

Diqqat!!! Soch, bosh, ko'z, qosh, quloq, og'iz, burun, qorin, mo'ylov, soqol, oyoq, qo'l, yurak, jigar, til, bo'g'iz, tomoq, lab, tish kabi tana a'zolari orqali shaxs ma'nosi anglashilishi ham sinekdoxa asosida ma'no ko'chishiga asoslangan bo'ladi. Do'ppi boshimga tor keldi.

2) *Butun orqali bo'lak (qism) ni ifodalash:* Besh qo'l barobar emas. Olma archayotib qo'lini kesdi. G'ildirakni yurg'izing, bozordan u-bu olib kelaylik. Urush ko'plarning yostig'ini quritdi.

Darslikdagi matnlarda metonimiya va sinekdoxa yo'li bilan hosil bo'lgan ko'chma ma'nolar quyidagicha izohlanadi: 1. Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo'lingizga suv berib,



qizingizning choklarini tikishib, xizimatingizni qilib yotardim! (Cho'lon). 2. O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa, Oltin boshning kalla bo'lgani shudir. (E.Vohidov). 3. Bashirjon yoniga ag'darildi: «Rahmatli chol to'g'ri aytarkan. Undan-ku, bir tirnoq — men qoldim. Yaxshimi-yomonmi, har qalay, ismini familiya qilib yuribman». (N.Aminov).

Matnda qo'llangan metonimiyalar: qizingizning *choklari* – tikayotgan matolari (kiyimlik yoki ko'rpalik); O'zbek *Navoiyni* (Navoiy asarlarini) o'qimay qo'ysa;

Matnda qo'llangan sinekdoxa: *bir tirnoq* (farzand ma'nosida) - men qoldim.

Shunday qilib, o'quvchilarga ko'chma ma'no va ularning turlarini o'rgatish ona tili o'qitishning eng muhim tamoyillaridan biri bo'lib, uni amalda qo'llash bilimlarning puxta bo'lishini ta'minlaydi, nutq malakalarining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kun dolzarb muammolar sirasiga kiradigan vazifalar-o'quvchi shaxsini kamol toptirish, har bir aytgan gapini suhbatdoshiga tushunarli qilib yetkazib beradigan, zarur bo'lsa, asoslab bera oladigan mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng barkamol insonni tarbiyalash, uning nutq madaniyatini shakllantirish, shu maqsadda so'z boyligini oshirish, so'zdan hamda grammatik vositalar beradigan uslubiy imkoniyatlardan o'z o'rnida foydalanish malakasini hosil qilish vazifalari ona tili o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Erkaboyeva O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darsliklari.



KATTA O'QUVCHILARIGA CHET TILINI O'RGATISH VA O'QITISH XUSUSIYATLARI

Parmanov Aktam G'ulomovich

Navoyi viloyati Xatirchi tuman XTBga qarashli 61-umumiy
o'rta ta'lim maktabi Nemis tili fani o'qituvchisi.

Telefon: +998(94) 378 66 67

aktamp@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada katta o'quvchilariga chet tilini o'rgatish, o'qitish xususiyatlari muhokama qilinadi. Chet tilni samarali o'rganish uchun mos pedagogik sharoitlar katta o'quvchilar tomonidan ushbu muammoni hal qilish.

Kalit so'zlar: chet tilini o'rganuvchilar, tilshunoslar tajribasi, motivatsiyasi, pedagogik sharoitlari, "kompetensiyasi" va yondashuvlar.

Bizning jamiyat globallasuvi, o'zaro aloqalarni kengayish davrida xalqaro aloqalar va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik siyosat, iqtisod va madaniyat sohasida juda ko'pchilik katta o'quvchilar chet tilini oson o'rganishi kerak. Shunga qaramay, ko'plab katta o'quvchilar chet tilini o'rganishda qiynalishadi. Chet tilni o'rganishning ba'zi xususiyatlarini bilish va ko'rib chiqish katta o'quvchilarining til o'rganishini optimallashtirishga yordam beradi. Psixologlarning fikriga ko'ra, mantiqiy fikrlash yoshga qarab yaxshilanadi, ammo qisqa muddatli xotira yomonlashadi. Qulay

omil - bu funktsiyalarning o'zaro bog'liqligi va muvofiqlashtirilishi individual kamchiliklarni qoplaydi. Masalan chora-tadbirlar, to'plangan tajriba, yaxshi rivojlangan mantiqiy fikrlash qisqa muddatli xotira hajmini to'ldirishga yordam beradi. Statik tajriba salbiy tomonlarini ham ko'rsatishi mumkin va ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir kursatadi. Kamomad ona tilidagi bilimlar oqimi tushunish va o'zlashtirishni qiyinlashtirishi mumkin grammatik va leksik tuzilmalarni bilish. Aksincha, juda yuqori darajadagi malaka, ona tilini bilmaslik chet tilini o'rganishga xalaqit berishi mumkin chunki katta o'quvchining ifoda etish ehtiyoji o'zining fikrlari, boy hayotiy tajribasiga ziddir shu sababli chet tilidagi imkoniyatlar bilan aldash ko'plab xatolarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, amaliyot isbotladi bir chet tilini o'rganishda lingvistik tajriba mavjudligini ta'kidlaydi chet tili boshqa chet tillarini muvaffaqiyatli o'rganishda yordam beradi. Shuningdek, motivatsiya kattalar ta'limida muhim rol o'ynaydi, bu odamni harakatga undaydi, uni safarbar qiladi. Energiya uning harakatlarini boshqaradi. Voyaga etgan auditoriya bilan ishlashda e'tibor talab etiladi uning ijtimoiy rolini hisobga olgan holda har bir o'quvchining bilimini oshirish uchun mos qulay sharoitlarni yaratish, o'quvchi tabiiy narsalarga intilishlari kerak. Ohang qiziq va ishonchli bo'lishi kerak. Bundan tashqari, hissiy qulaylik yaratish, shaxslararo munosabatlarda nafaqat e'tiborga olinishi kerak. Tilni bilish darajasi, shuningdek, ishtirokchilarning yoshi Talabalarning natijalarini baholash, tuzatish kerak. Xatolar va muvaffaqiyatlar va harakatlar uchun mukofot. Voyaga etgan har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyati bor, chet tilini o'rganish uchun motivatsiya, bu ko'pincha, uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq. Ko'pgina psixologlar sakkizta muhim xususiyatni aniqladilar

1. Voyaga etgan o'quvchilar g'ayratli bo'lishadi Ularga chet tilini o'rganish faqatgina samara beradi

agar ular yangi ko'nikmalarni egallashga intilishlari kuchli bo'lsa motivatsiya qilish mumkin emas, lekin siz buni tashqaridan rag'batlantirig.

2. Voyaga etgan o'quvchi faqat fikrni o'rganadi bu esa o'zlari uchun muhim va amaliy qo'llanilishi uchun zarurdir.

3. Voyaga etgan o'quvchilar bajarish orqali o'rganadilar. Ular olgan bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega va ularni mustahkamlang, muntazam ravishda takrorlang, keyin yangi bilimlar paydo bo'ladi.

4. Kattalarga dars berishda real voqiylikdan foydalanish zarur, amaliy hayotdagi muammolar va aniq narsalarni qidirig.

5. Avvalgi hayot tajribasi voyaga etgan o'quvchi uchun katta ta'sirga ega. Talaba qanday qabul qiladi yangi bilim to'g'ridan-to'g'ri uning oldingi hayotiga bog'liq.

6. Voyaga etgan o'quvchilar norasmiy muhitga muhtoj, chunki ko'p odamlar yoqimsiz narsalarni bog'lashadi.



7. Voyaga etgan talabalar guruhiga dars berishda siz turli xil o'qitish usullaridan foydalanish to'g'risida eslab qolishingiz kerak. Yangi bilimlarni o'rganish bir necha kishi tomonidan qabul qilinsa yanada samaraliroq bo'ladi, ko'rish va eshitish kabi hislar tomonidan. Audio-yozuv, ko'rgazmali qurollar, videofilmlar bilimlarni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, o'qitishning munozara usuli u olingan bilimlarni yaxshiroq mustahkamlash, ularni qo'llash va o'quvchining e'tiborini jalb qilishga yordam beradi.

8. Voyaga etgan o'quvchilarni "baholash" emas, balki boshqarish kerak". Ularning aksariyati o'zlarini yo'llarini tanqid qilishadi shuning uchun ularga raqobat salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin jamoatchilik tomonidan qoralanishidan qo'rqishadi. O'zaro ta'sir o'tkazish kattalarni samarali va muvaffaqiyatli o'qitish eng muhim shartlardan biridir. Shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish o'zaro o'quv jarayonini yaxshilaydi va eng ko'p natijalarga olib keladi.

Men kattalarga muvaffaqiyatli ta'lim berish uchun, chet elliklarga ishonaman, yangi til o'quvchining doimiy o'zaro ta'sirini talab qiladi va o'qituvchi o'quv jarayonining barcha bosqichlarida natijalarga erishadi. Bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni shu munosabat bilan rol o'ynash darslari, haqiqiy hayot vaziyatlarni modellashtirish. Bundan tashqari, ilgari aytib o'tganimizdek, kattalarda motivatsiya mavjud. o'qish istagi bolalar va o'spirinlarga qaraganda ko'proq, shuning uchun uni saqlab qolishi va boshqarish kerak. Yaxshilab yodlash uchun men yangi so'zlar uchun vizual tasvirlar va voqiyalardan foydalanaman. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilimini baholash o'rniga, eng ko'p samarali usul avval natijalarni baholashdir. o'quvchilarga keyin esa ularni o'qituvchi bilan muhokama qilish. Shunday qilib, biz "vakolatli" yondashuv, bu shakllanish va rivojlanishni nazarda tutadi. Turli xil fikrlar, munosabatlar va istaklarni yaratish rivojlantirish kerak. Ushbu maqsadlarning barchasi kattalarning umidlarini qondiradi.

Adabiyotlar

1. Nemov R.S. Psixologiya: darslik. tirnoq uchun. yuqori. ped. o'rganish. muassasalar: 3 ta kitobda. - 4-nashr. / R.S.Nemov. - M.: Gumanitar. tahrir. VLADOS markazi. - 2003. - 688 s.
2. Ballastov A. V. Axborot texnologiyalarini amalda qo'llash kattalarga professional yo'naltirilgan chet tilini o'rgatishda mantiq lingvistik bo'lmagan universitetda lingvistik aloqa / A.V.Balastov // G'arb-TPGU. - 2012. - № 4. - S. 74-79.
3. Kozlova O. V. Kattalarni chet el tilida o'qitishning integral texnologiyasi g'alati til / O. V. Kozlova // Zamonaviy yuqori texnologiyalar. -2005. - № 8. - S. 135-137.
4. Kitaygorodskaya G. A. Ta'lim jarayonini maqbul tashkil etish kattalar uchun intensiv ravishda chet tillarini o'qitish / G.A. Kitayago-Rodskaya // Chet tillarni o'qitish psixologiyasi va metodikasi. - M. -1978.



SURXONDARYO O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI XUSUSIDA

Qayumova Dilorom To'ychi qizi

Termiz davlat universiteti

lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi

1- bosqich magistranti

tel: 90. 245 96 19.

Annotatsiya. Sheva milliy tilning o'ziga xos ko'rinishi hamda uning asosiy materialidir. Uni o'rganish orqali xalqning, nafaqat, lug'at boyligi, balki turmush tarzi, madaniyati, urf- odatlari, etnik tarkibi haqida ham qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Quyidagi maqolada ham Surxondaryo o'zbek shevalari hamda uning o'rganilishi haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo o'zbek shevalari, tasnif, tamoyillar, dialekt, leksik tarkib, tor dialektlar.

O'zbek shevalarini o'rganish masalalari XX asrning 20-30- yillaridan boshlangan bo'lib, tadqiqotlar jarayonida ko'plab ma'lumotlar to'plandi va shular asosida o'zbek tili shevalarining dastlabki tasniflari yaratildi.

- tasnif qilish jarayonida bir qancha tamoyillarga;
- o'zbek tiliga xos bo'lgan unli va undoshlar tizimi;
- singarmonizm va umlautning mavjudligi;
- tarixiy qatlamga oid leksik birliklarni qanchalik saqlab qolganligi;
- o'zlashgan qatlam so'zlarining mavjudlik miqdori;
- qardosh va qardosh bo'lmagan tillar ta'siri;
- shevaning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi fonetik, leksik, morfologik ko'rsatkichlarga tayanildi¹.

O'zbek shevalarini klassifikatsiya qilish jarayonida A.K. Borovkov, V.V.Reshetov, G'ozi Olim Yunusov tasniflarida Surxondaryo o'zbek shevalariga to'xtalib o'tiladi va mazkur shevani qipchoq guruhiga kiritadilar. Xususan, A.K.Borovkov Surxondaryo o'zbek shevalarini "a" lovchi shevalarning "dj/z" lovchi guruhiga mansub ekanligi aytar ekan, uni "Shayboniy o'zbek" yoki "dj/z" lovchi dialektlar safiga kiritib, mazkur sheva haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Ammo shevaning yana bir xususiyati ham borki, u ham bo'lsa tojik tili ta'sirida unilarning keng talaffuz qilinishi hamda "o"lashish hodisasidagi fonetik hamda leksik farqlar edi. Bu hodisa ayrim tojik tilli hududlar bilan yondosh zonalarda ko'proq ko'zga tashlanadi. "O"lashish holati, ayniqsa, Boysun, Denov, Uzun, Sariosiyo tumanlaridagi o'zbek dialektlarida sezilarli darajada yuqori.

Surxondaryo o'zbek shevalarini o'rganishda S.Rahimovning xizmatlari katta. U o'zining "O'zbek tili Surxondaryo shevalari" (fonetika, leksika) kitobida Surxondaryodagi o'zbek shevalari haqida ko'plab ma'lumotlarni keltirib o'tar ekan, hudud dialektini quyidagicha guruhlariga ajratadi:

- eski adabiy tilda ishlatilgan va hozirgi kungacha shevalar leksikasida avvalgi holatida qo'llanadigan so'zlar;
- qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari hamda eski o'zbek tilidan to hozirgi shevalargacha turli fonetik va semantik o'zgarishlar bilan yetib kelgan, lekin adabiy til normasida qo'llanmaydigan so'zlar;
- adabiy tilda uchramaydigan, qadimgi turkiy yozma manbalarida ham qayd qilinmagan shevaning o'zi uchungina xos bo'lgan tor dialektal so'zlar;
- adabiy tildagi so'z bilan fonetik strukturasi o'xshash bo'lsa-da, shevada boshqa ma'noda qo'llaniladigan so'zlar;
- adabiy til va shevalarda mavjud bo'lib, ularning birida ayrim ma'nolari o'zgarishga yuz tutgan yoki stilistik bo'yoq kasb etgan so'zlar;
- adabiy tilda to'la normallashtirilmagan yoki dominant belgilanmagan badiiy adabiyotlarda parallel qo'llanadigan so'zlar² kabi guruhlariga ajratadi va har bir guruhga mos bo'lgan misollarni keltirib o'tadi.

S.Rahimov Surxondaryo o'zbek shevalarini o'rganishda tamal toshini qo'yib bergan inson

¹ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Navro'z, 2016. –B. – 81 – 83.

² Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари(фонетика, лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – В. 69-77.



hisoblanadi. U o'z tadqiqoti jarayonida viloyat hududidagi ko'pgina qishloqlar dialekti va ularning o'ziga xos jihatlarini yoritib bergan. Ammo bu bilan Surxondaryo o'zbek shevalari to'laqonli o'ranilgan deya olmaymiz. Sababi viloyat hududining kattaligi, tumanlar relyefining rang-barangligi, tadqiqotlar ko'p vaqt va mablag' talab etishi voila dialektini o'rganishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Surxondaryo o'zbek dialektlari o'zi bilan yondosh bo'lgan dialektlar bilan umumiy jihatlariga ham ega hisoblanadi (1-jadval):

1-jadval

Surxondaryo shevasi		Samarqand shevasi	Qashqadaryo shevasi	Qipchoq shevalari	Adabiy til shakli
Dj/z lovchi	y/j lovchi				
1. Bubäk chāqa chāqalāq alla	chaqalāy	chaqalāq	bubak chaqaloq	bobak	chaqaloq
2. Nārban 3. Narsa nersa	narvān narsa	nārbān narsa	narvān narsa	narvan narsa	shoti narsa
4. Makka, juvarī	makka, joxāri tepa, teba	makkayi	makkayi	makkayi, joxari	makkajo'- xori
5. Toba, doṇ		toba, doṇ	doṇ	doṇ, toba	tepalik

1-jadval. Surxondaryo o'zbek dialektlariga yondosh bo'lgan dialektlar

Leksik qatlamdagi bu kabi o'xshashliklarni hududiy yaqinlik natijasida uzoq vaqt davomida shakllangan deya izohlaydi F. Abdullayev o'zining "Xorazm shevalari leksikasi" asarida. Biz bunga qo'shimcha qilib aholining etnik tarkibiy jihatini ham kiritgan bo'lar edik. Sababi Afg'oniston hududidagi o'zbeklar nutqida ham qipchoq elementlari uchraydi. Bu esa ularning hududiy emas, etnik jihatdan o'zbek xalqi hamda qipchoq lahjasi vakillari ekanliklari sababidandir. Ba'zida dialektlar orasidagi bu o'xshashlik aholi o'rtasidagi qadimdan intensiv aloqalar natijasi bo'lishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016. – B. – 81 – 8
2. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари(фонетика, лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – В. 69-77.
3. Абдуллаев. Ф. Хоразм шевалари лексикаси. Ўз.ШЛ (тўплам). – Тошкент, 1972.
4. www.ziyouz.com.



ADABIY TIL MILLAT KO'ZGUSI

Qoraboyeva Halima Abdurahimovna

Namangan viloyati Norin tuman 34-maktab

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
941587484. koraboyevahalima@gmail.com.

Annotatsiya : Ushbu maqolada ona tili o'qitishning ilmiy asoslari va uning gramatik, lingvistik, morfologik, fonetik tasniflari haqida yozilgan. Yoshga oid xususiyatlarining jihatalri to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Lingvistik, nazaryasi, fonetika, fonologiya, leksika, morfologiya, gramatika, milliy o'zbek tili, shevalar.

Bugungi tezkor va shiddatli zamonamizga kelib o'quvchilar qolaversa, butun jamiyat kishilarining imloviy savodxonligini yaxshilash davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi barcha adabiyot ahlari singari menda ham quvonch va faxr tuyg'ularini in'om etdi. Qadim zamonlarda ham imloviy savodxonlik ota-bobolarimizning diqqat markazida bo'lgan. Podshohlarning saroylarida eng yuqori moyana xattotlarga to'langan. Ko'p yillik pedagogik tajribamdan kelib chiqib, shuni angladimki, imloviy savodxonlik ichki - madaniyat, ma'rifatning kengligi darajasini belgilaydi. Har gal biror sinfga saboq berish uchun kirarkanman, dastlab ularning savodxonlik darajasini aniqlayman. Mening nazarimda, savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchining xotirasi yaxshi, sog'lom fikr sohibi, tafakkur imkoniyati keng bo'ladi. O'quvchilarning savodxonlik darajasini oshiruvchi omillar bisyor, shulardan biri adabiy til nutqdir

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg'ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi **fonetik** 11 jihatdan, Farg'ona shevasi **morfologik** jihatdan adabiy tilga asos bo'lgan.

Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi. Milliy til va adabiy til tushunchalari bir xil emas. Milliy til millatning maydonga elishi bilan paydo bo'lsa, adabiy til milliy tildan oldin, xalq tili mavjud bo'lganda ham yuzaga keladi. Milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, san'atkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo'lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'lgan. Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo'lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo'q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko'radi. Adabiy tilning **og'zaki** va **yozma** shakllari mavjud. Adabiy tilning og'zaki shakli nisbatan qadimiy bo'lib, u nutq tovushlari, urg'u, ohang (ohang) kabi fonetik vositalarga asoslanadi. Talaffuzga oid qoida va me'yorlarni orfoepiya belgilab beradi.

Adabiy tilning yozma shakli grafik vositalarga asoslanadi. Yozuvga doir qoida va me'yorlarni orfografiya (imlo) va punktuatsiya (ishorat) belgilaydi.

Hulosa qilib aytganda bugungi rivojlanib borayotgan malakatimizda sof o'zbek tili taqdiridan tashvishga tushasan, chunki bugunning har bir joy nomlari, yangi shaharlar, markaz mehmonxonalari va bir qancha joy nomlari allaqachon horijiy til nomlari bilan ataladi. Misol uchun : "Toshkent city" buning o'rniga "Yangi Toshkent" deb nomlansa maqbulroq bo'lardi. bu joyda city – shahar so'zi ingliz tilidan tarjimasiz ishlatilayotgan so'zdir. Bizning istagimiz sof o'zbek tilimizni farzandlarimizga yetkazish va uni asrab ardoqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili o'qitish metodikasi. Mamatov. G.A. Boqiyeva.X.S. Masharipov.U Toshkent-2014
2. Ona tili o'qitish metodikasi . Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldasheva Sharofjon Sariyeva. Toshkent-2009
3. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. G'oyibnazar Ernazar. Toshkent-2013
4. Ona tili o'qitish metodikasi. Ziyonet.



ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA METAFORALARNING QO'LLANILISHI

Sharofova Sevinch Jamoliddin qizi

Samarqand davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Telefon: +998945315630

dinaraislamova777@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir Abdulla Oripov she'riyatining til xususiyatlari metaforalar va ularning bir qator turlari: individual metafora, an'anaviy metafora, sinestetik metafora, jonlantirish metaforasi kabilar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yozuvchining tili va uslubi, o'ziga xoslik, metafora, individual metafora, an'anaviy metafora, sinestetik metafora, jonlantirish metaforasi.

Abdulla Oripov buyuk shoir, so'z ustasi, zamonaviy o'zbek adabiyotida o'zidan yorqin iz qoldirgan adib. Shoir she'riyatining asosini milliy ruh, chuqur falsafiylik tashkil etadi. Abdulla Oripov she'rlari o'zining beadam samimiy tuyg'ularga boyligi va xalqchilligi bilan she'riyat shaydolariga birday manzur bo'lib kelmoqda. Shoirning ijod qamrovi keng, fikri teran, badiiy mushohadalari kuchli va parvozi yuksakdir.

Adibning so'z qo'llash mahorati, individual uslubi va badiiy nutqining o'ziga xosligi uning til vositalaridan foydalanish mahoratining yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ayniqsa, shoir she'rlarida qo'llangan poetik ko'chimlar qahramon ruhiyatini ochib berishda, she'rning ta'sirchanligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, she'r tarkibida ma'no ko'chishi, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi keng kuzatiladigan holatdir. So'zlarning matn tarkibida o'z ma'nosidan tashqari qo'llaniladigan konnotativ ma'nolari o'z navbatida ifodalanayotgan fikrning teranligini, emotsional bo'yqordorligini oshiradi. Shoir she'rlari tarkibida ko'p qo'llanuvchi ma'no ko'chish turlaridan biri bu metaforadir.

Metafora bir predmetning nomini boshqa predmetga o'xshashligini e'tiborga olgan holda ko'chirishdir. Metaforalarni qo'llanilishiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar ma'lum darajada obrazlilikini yo'qotgan, asosan, atash, nomlash vazifasini bajaradigan, tasviriylilik, uslubiy bo'yqordan holi bo'ladi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining ijodiy mulki, ta'sirchanlik, obrazlilik, uslubiy bo'yqor unda yaqqol aks etib turadi[3.91].

Abdulla Oripovning "Bahor" nomli she'rda xususiy-muallif metaforaning go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin:

Tarnovlar bo'g'zida lola ham ko'rkam,

Terak uchlarida izg'ir mavjudot.

Hattoki tuyg'usiz, chirik xazon ham

Yashil po'panakdan bog'labdi qanot[1.22].

Bunda shoir insonga xos bo'lgan tuyg'usiz sifatini xazonga ko'chirish orqali metaforik birlik hosil qilgan. She'rda shoir yangilanish, yasharish fasli bo'lmish bahorni go'yo musavvir tasvirlagandek so'zlar vositasida ko'z o'ngimizda gavdalandiradi.

Metaforaning mazmuniy jihatdan biri sanaluvchi jonlantirish san'ati ham badiiy matnga obrazlilik, hissiy bo'yqordorlik baxsh etadi. Bunda insonga xos bo'lgan harakat-holatlar, xususiyatlar hayvonlar, jonsiz predmetlar, tabiat hodisalariga ko'chiriladi[3.92].

Abdulla Oripovning "Munojotni tinglab" she'rining quyidagi bandida ham mazkur holatni ko'rishimiz mumkin:

Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,

Qaylardan tug'ilmish bu oh-u faryod.

Kim u yig'layotgan? Navoiymikin

Va yo may kuychisi Xayyommikin dod?![1.5]

Shoir ushbu misralarda *eshilmoq*, *to'lg'anmoq*, *ingranmoq* kabi insonga xos bo'lgan harakatlarni kuy (ohang)ga ko'chirish orqali jonlantirish metaforasini hosil qilgan. Yana bir she'rda ham xuddi shunday holat tasvirlangan:

Shabnam shovullaydi bog'lar qo'ynida,

Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar.

Quyoshning erinchoq yog'dularida



Nafis yaltiraydi bargi xazonlar [1.6].

“O‘zbekistonda kuz” deya nomlangan yuqoridagi she’rida inson uchun xos bo‘lgan *bo‘zarmoq* fe’lining *tong* leksemasiga, *erinchog* sifatining yog‘du leksemasiga nisbatan qo‘llanilishi metaforaga jozibadorlik baxsh etgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jonlantirishning yana bir turida jonsiz predmetga xuddi jonlidek murojaat qilinadi. Bunda narsa-predmet jonlantirilmaydi, go‘yo jonlidek tasavvur qilinadi va bu fanda apastrofa deb yuritiladi[3.93].

Abdulla Oripov nutqning obrazlilikini oshirishda, she’rning ta’sirchanligini kuchaytirishda metaforalardan unumli foydalangan. Metaforalar shoir ijodida anchagina salmoqli o‘rin egallagan bo‘lib, ba’zi she’rlarining har bir misrasida metaforalarning turli xil ko‘rinishlarini kuzatishimiz mumkin. Shoirning “Bahor” nomli she’ridagi quyidagi bandning har bir misrasida metafora namunalari uchramiz.

Yellar ham uyg‘onadi ishqalab kaftin,
Oftob ham yuksakda – tik kelar quyosh.
Tog‘lar ham yuk tashlab ko‘tardi kiftin,
Bezavol maysa ham silkitadi bosh.

She’rda shoir insonga xos harakatlarni jonsiz predmetlar (yel, oftob, tog‘, maysa)ga ko‘chirgan.

Abdulla Oripov she’rlarida metaforaning yana bir mazmuniy ko‘rinishi bo‘lgan sinestetik metaforalarni ham ko‘rishimiz mumkin. Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o‘xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko‘chma ma’no yuzaga keladi[3.94].

Qanday shirin damlar... mening ham
Yuragimda bir his toshmoqda,
Yuragim ham daraxtzor kabi
Nimanidir olqishlamoqda[1.7].

She’rda aslida ma’za-ta’mini bildiruvchi shirin sifati dam leksemasi bilan birikib, yoqimli ma’nosini ifodalab, sinestetik metaforani hosil qilyapti. Shuningdek, shoir olqishlamoq fe’lini jonsiz predmet (yurak)ga nisbatan qo‘llash orqali jonlantirish metaforasini yuzaga keltirgan.

Sinestetik metaforaning yana bir namunasini shoirning “Sarob” she’rida ham uchratishimiz mumkin:

Ko‘z oldimda kiprikdayin tizilar yillar,
Har biriga marjon bo‘lar achchiq unlarim,
Xira tuman orasida cho‘g‘day miltillar,
Jayron quvib jayron yanglig‘ o‘tgan kunlarim [1.19].

Shoir ma’za-ta’mini bildiruvchi achchiq ssifatini un(ovoz)ga nisbatan qo‘llagan holda konnotativ ma’noni yuzaga keltirgan. “Achchiq unlarning kiprikdayin tizilgan yillarning har biriga marjon bo‘lishi, jayron yanglig‘ o‘tgan kunlarning xira tuman orasida cho‘g‘day miltillashi...” Bu misralarni o‘qir ekanmiz, Abdulla Oripovning birliklardan foydalanish mahoratining naqadar beqiyos va takrorlanmas ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Shuningdek, shoir she’rlarida uchraydigan *oltin tuproq, achchiq xazon, olovli nafas, sarg‘aygan satrlar, tilla bosh, kumush diyor, oltin bolalik, mo‘ysafid quyosh, nogiron yurak, olmos aql* kabi metaforalarning o‘rni ham beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, metaforalar shoir she’rlarining ta’sir kuchini oshirish, obrazlilikni ta’minlash, she’rning ma’no ko‘lamini kengaytirish maqsadida keng qo‘llanilgan. Shoir hech bir ijodkor ijodida uchramaydigan go‘zal namunalar yaratdi. Abdulla Oripov - she’riyat dunyosining takrorlanmas va beqiyos iste’dod sohibi va shubhasiz, buyuk so‘z san’atkoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Saylanma. She’rlar. – Toshkent: Tamaddun, 2011. – B 276.
2. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU, 1994. – B 72.
3. Yo‘ldoshev M., S.Muhammedova, M.Saparniyozova. Matn lingvistikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – B 160.



ARABCHA GAZETA SARLAVHALARINI O'RGANISH UCHUN YONDASHUVLAR

Yusuf Xumora Ikrom qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti 2-bosqich magistranti
lingvistika (arab tili) mutaxassisligi
E-mail: agueraachi@gmail.com
Tel: +998998375511

Annotatsiya: Maqolada arab va chet el olimlari tomonida o'rganib chiqilgan arab gazeta sarlavhalari va ularning izlanishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Sarlavhalar asosan Sharq va G'arb tadqiqotchilarining qarashlari asosida tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: arab gazeta sarlavhalari, zamonaviy arab tili, stilistika, grafika, semantika, mikrotizim.

Ma'lumki, gazeta tili radio, televidenie, internet tili bilan bir qatorda OAV tilining bir qismi sifatida qabul qilingan va XXI asrda tilshunoslikda ilmiy yo'nalish sifatida o'rin egallagan. Gazeta tematikasi turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Lekin uning 70 foizi muayyan mamlakat yoki shaharning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki madaniy hayotini aks ettirishga qaratilgan. Gazeta tilini o'rganish adabiy til xususiyatlarini o'rganish bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shu sababli ham keyingi davrlarda tilshunoslar tomonidan gazeta tilini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotimiz jarayonida ham arab gazetalarining axborot yetkazish, til sofligi, ijtimoiy-siyosiy ta'sir va omma fikrini shakllantirish vazifalari asosiy o'rinni egallashi aniqlandi.

Arab gazetalar tili – bu kichik til materialida katta axborotni bera oladigan o'ziga xos mikrotizimdir.

Arab gazeta sarlavhalari ilgari mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida olimlar tomonidan o'rganilmagan. Biroq, ushbu hodisaning ba'zi xususiyatlari mahalliy va xorijiy tilshunoslar asarlarida tilga olingan.

Professor A.L.Spirkin o'zining «Zamonaviy arab tilining funksional uslublari va nutq janrlarining identifikatsiyasi» (2008) to'g'risidagi ishida Arab gazeta sarlavhalarining funksional uslubi va struktur grafik xususiyatlari haqida ham aytib o'tgan. Uning fikricha sarlavha gazeta matnining eng muhim qismi hisoblanib, uning vazifasi gazeta tilini anglashdan, matnning asl ma'nosi nima haqidaligini gazetxon-o'quvchiga yetkazib berishdan iboratdir (Spirkin,2008:183)¹.

A.L.Spirkin Arabcha gazeta sarlavhasining kommunikativ yo'nalishini,grammatik,uslubiy va grafik xususiyatlarga ajratganligini o'z ishida batafsil yoritib bergan. Muallifning buyuk xizmatlari shundaki,u birinchi marta arabcha gazeta sarlavhalaridagi tinish belgilari to'g'risida ish olib borgan. Tilda,matnlarda,xat-habarlarda tinish belgilarining doimiy qo'llanilishiga qaramay.arab tilida tinish belgilarining ishlatilish tartibi umumiy tamoillarga asoslangan bo'lib, o'zbek tilidagi ushbu tartibdan sezilarli darajada farq qiladi².

Yana bir olim A.E.Jukovskaya o'zining «Zamonaviy arab va rus adabiy tillardagi matnlarning struktur-semantik va funksional–uslubiy xususiyatlari» to'g'risidagi tadqiqotida arab gazeta sarlavhalari haqida mbir qancha ma'lumotlar keltirib o'tgan.(2009). Olim ushbu tadqiqotda sarlavhaning aniq mohiyatini yoritib berganiga qaramay,u o'z natijalarini tasdiqlash uchun arab tilidan (arablarning) misollar keltiradi.

A.E.Jukovskaya sarlavha shu o'rinda alohida ro'lga ega ekanligini, «O'quvchi (gazetxon) uchun ko'pincha maqola mazmuni to'g'risida ma'lumot berishi» va arabcha gazeta sarlavhalarining (AGS) nominativ, information (information-reklama), intertekstual va ekspressiv-baholovchi turlarga ajratib ko'rsatganligini tushuntirib o'tgan [Jukovskaya,2009: 126-127].³

Har-xil uslubdagi arabcha matnlar,shu jumladan gazeta va jurnalistik matnlar sarlavhalarining grafik va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida,arabshunos A.Yu.Krilov «Arab adabiy tili hamda Mashriq va Mag'ribning arab tilidagi so'zlashuvlarida funksional-semantikaning xissiyot

¹ Cm[Spirkin,2008:183]

² Cm.[БСЭ.URL: <http://alcala.ru/bse/izbrannoe/slovar-P/P17287.shtml>(murojaat qilingan vaqt:24.07.2020)

³ Cm [Jukovskaya,2009: 126-127]



maydoni» dissertatsiyasida ta'kidlab o'tgan (2010)¹. Tilshunos gazetxonga hissiy ta'sir ko'rsatish maqsadida foydalanilgan sarlavhalarni grafik dizaynlashtirishning turli xil variantlariga misollar keltiradi [Krilov,2010: 265] .

Chet el tadqiqotchilarining ishlari orasida Janet Vatsonning «Arab sarlavhalari sintaksisi va yangiliklar to'plami»² asarini alohida ta'kidlash kerak, unda muallif arab gazetalari va yangiliklar to'plamlarida sarlavhalarining sintaktik parametrlarini tahlil qilib, ularni ingliz hamkasblari ishlari bilan taqqoslaydi. Vatson arabcha gazeta sarlavhalarini quyidagi sintaktik tuzilmalarga ajratib chiqqan:

1. Ot so'z birikmalari (ot so'z turkumi)
2. Fe'liy jumal (gap)
3. Ismdan boshlangan
4. Fe'l bilan boshlangan gaplar

Vatson arabcha sarlavhalardagi ism strukturasi fe'llarga qaraganda ustun, degan xulosaga keladi. Arabcha gazeta sarlavhalarining sintaktik xususiyatlarini o'rganish unda kata qiziqish uyg'otdi va ushbu hodisani to'liq ochib berish un ko'p izlanishlar olib bordi.

Gazeta sarlavhasi ularning funksiyasiga ko'ra gazeta-publististik matnning muhim qismlaridan bo'lib, uning maqsadi gazetxonning (o'quvchi) e'tiborini jalb qilish va maqolani o'qishga undashdir.

“Mazmun nuqtai nazaridan sarlavha matnning mustaqil birligi hisoblanmaydi. Shuning uchun sarlavha ko'proq matnning vazifalari va dizayn qoidalariga mos keladi.” [Xudur,1972,77-78]

Sarlavha –bu qator yoki bir nechta satrlardan iborat bo'lgan, axborot xabari oldidan bosh harflar bilan yozilgan va uning mazmun-mohiyati haqida qisqacha ma'lumot yetkazadigan mikrotekstdir. [Hamza,1970;161]

Shunday qilib,al-Mahdi al-Jandubiy o'zining “Jurnalistik matnni tahrirlash”³ ishida sarlavhaga quyidagicha ta'rifni beradi. “Sarlavha –bu gazeta nashrining barcha talablariga javob beradgan, ammo shu bilan bir qatorda qisqa bo'lishi kerak bo'lgan siyosiy matndir”.

Sarlavhaning matngacha bo'lgan holati: uning o'quvchi bilan aloqani o'rnatishda tutgan o'rni, shuningdek ajratib ko'rsatilgan shriftlar bilan alohida urg'u berilishi sarlavhani o'ziga xos,mustaqil elementga aylantirad.

Adiblar al-Xudur (“Gazeta xabarlari”)⁴ va Abdel Latifa Hamza (“Matbuot tahriri san'ati”)⁵ o'zlarining asarlarida sarlavha hodisasini o'rganishga tarixiy yondashganliklarini ko'rishimi mumkin. Ularning ta'kidlashicha ,arab jurnalistlari uzoq vaqt davomida sarlavhalarga ahamiyat bermagan. Materiallar (ma'lumot) yomon tuzilganligi bois sarlavhalar ko'pincha o'z nomlariga ega bo'lmagan.

Aksariyat tadqiqotchilar sarlavha gazetaning matn tizimida o'ziga xos kommunikativ jihatdan kuchli o'ringa ega ekanligini tan olishadi, chunki u sintaktik tuzilishidan qat'iy nazar, nashr mazmuni haqida o'quvchilarni xabardor qilish uchun xizmat qiladi.

XX asrning 2-yarmidan boshlab vaziyat o'zgardi. Gazetalarning sarlavhalariga, ayniqsa birinchi sahifalarida chop etilgan nashrlarga ko'proq e'tibor berila boshlandi, [Xudur,Hamza] .

Gazeta sarlavhalarining grafik jihatdan mustaqilligi, matndan alohida ekanligi sababli ham gazeta sarlavhasi avvalo, gazetxon e'tiborini chorlash, uni ushbu maqolani o'qish yoki o'qimaslikni tanlashini hal etish imkonlariga ega bo'lib, muallif va kitobxon o'rtasidagi aloqada birinchi muhim bog'lam sifatida katta xizmat qiladi. Sarlavha o'quvchiga muallifning niyatini yetkazadi va mavzuga qiziqish paydo qiladi.

¹ Cm [Крылов,2010: 265]

² Watson, Janet C. The Syntax of Arabic Headlines and News Summaries [Электронный ресурс] / J. Watson // Arabic Grammar and Linguistics. – London: Routledge, 1999. – 245 p. Режим доступа: <http://books.google.ru/books?id=sgqp5hLJfAC&pg=PT178&dq=syntactic+structure+of+arab+newspaper+headlines+watson&hl=ru&sa=X&ei=DxroUdCTF8bV4gTR5oHgAw&ved=0CDIQ6AEwAA>

³ Al-Jandūbī, 'al-Mahdī. 'At-taḥrīru ṣ-ṣuḥufiyy [Электронный ресурс]. – 'Al-baḥrayn: Jāmi'atu l-baḥrayn. – 2010.

⁴ NXudūr, 'Adīb. 'Al-xabaru ṣ-ṣuḥufiyyu. – Dimašq: Maṭābi'u dāri l-ba'ti. – 1972. – 171 ṣ.

⁵ Hamza, 'Abdu l-Laṭīf. 'Al-madxalu fī fanni t-taḥrīri ṣ-ṣuḥufiyyi. – 'Al- qāhiratu: Dāru l-fikari –l-'arabiyyu. – 1970. – 550 ṣ.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шайхуллин Т.А., Набиуллина В.Р. Специфика арабского газетного заголовка как языковой единицы и его типы. //Современный мусульманский мир: электрон. журнал . 2018. № 2.С.4.
2. Бахарев Н.Е. Структурно-функциональные развитие заголовков (на материале заголовков из газет и журналов за 1903 – 1907, 1935 – 1939, 1965 – 1970 гг.): дис...канд. филол.наук. Алма-Ата, 1971.
3. Рашид Абу Райян [Электронный ресурс].-URL: http://www.ar4coll.com/2011/10/blog-post_21.html.
4. Спиркин А.Л. Функционально-стилистическая и структурно-графическая интерпретация арабских газетных заголовков.// Вестник РУДН. – 2008 – Вып.4.
5. Тошалиев И. Сарлавха стилистикаси. - Т.: “Университет”,1995..
6. Тошмухамедова Л. Газета сарлавхалари услубияти. - Т.: “Истеъдод”, 2008.
7. Watson, Janet C. The Syntax of Arabic Headlines and News Summaries[Электронный ресурс] / J. Watson // Arabic Grammar and Linguistics. – London: Routledge, 1999. – 245 p.
8. Xuḍūr, ‘Adīb. ‘Al-xabaru ṣ-ṣuḥufiyyu. – Dimašq: Maṭābi‘u dāri l-ba‘ti. – 1972. – 171 ṣ.
9. Hamza, ‘Abdu l-Laṭīf. ‘Al-madxalu fī fanni t-taḥrīri ṣ-ṣuḥufiyyi. – ‘Al-qāhiratu: Dāru l-fikari –l-‘arabiyyu. – 1970. – 550 ṣ.



ЛЕВ НИКОЛАЕВИЧ ТОЛСТОЙ

Бабаджанова Дилором Султанбоевна

Хоразм вилоят Гурлан тумани 24-мактабнинг

Рус тили ва адабиёти фани ўқитувчиси

Аннотация: В этой статье представлена информация о жизни и творчестве Лева Толстого.

Ключевые слова: Лев Толстой, философ, мир, Казань, война, Семейное счастье.

Лев Толстой — один из самых известных писателей и философов в мире. Его взгляды и убеждения легли в основу целого религиозно-философского течения, которое называют толстовством. Литературное наследие писателя составило 90 томов художественных и публицистических произведений, дневниковых заметок и писем, а самого его не раз номинировали на Нобелевскую премию по литературе и Нобелевскую премию мира.

Лев Толстой родился 9 сентября 1828 года в усадьбе Ясная Поляна Тульской губернии. Он был четвертым ребенком в большой дворянской семье. Толстой рано осиротел. Мать умерла, когда ему не исполнилось еще двух лет, а в девять лет он лишился и отца. Опекунном пятерых детей Толстых стала тетя — Александра Остен-Сакен. Два старших ребенка переехали к тете в Москву, а младшие остались в Ясной Поляне. Именно с семейной усадьбой связаны самые важные и дорогие воспоминания раннего детства Льва Толстого. В 1841 году Александра Остен-Сакен умерла, и Толстые переехали к тете Пелагее Юшковой в Казань. Через три года после переезда Лев Толстой решил поступить в престижный Императорский Казанский университет. Однако учиться ему не нравилось, экзамены он считал формальностью, а университетских профессоров — некомпетентными. Толстой даже не старался получить научную степень, в Казани его больше привлекали светские развлечения.

Used literature:

1. Fauziati, Endang. 2010. Teaching English as a Foreign Language. Surakarta: Muhammadiyah University Press
2. Tillitt Bruce, & Bruder Mary Newton. 1985. Speaking Naturally, Communication Skills in American English. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Zhang, Yan. 2009. An Experimental Study of the Effects of Listening on Speaking for College Students. CCSE Journal, 2, 194-204.



O'ZBEK TILI DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIMNING O'RNI VA "CHARXPALAK" TEXNOLOGIYASI

Ravshanova Gulchiroy Xolmamatovna

Navoiy viloati Zarafshon shahar

3-umumiy o'rta ta'lim maktabi

o'zbek tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tili darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlardan biri bo'lgan "Charxpalak" texnologiyasi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Intefaol metodlar, innovatsion texnologiya, "Charxpalak" texnologiyasi, "Taqdimot", "Tanlash ixtiyoriy, bajarish majburiy", "Imkoniyat" usullari.

Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. O'zbek tili darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

"Charxpalak". Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya o'zbek tili darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

"Charxpalak" texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlariga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiradilar;
- boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;
- materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;
- o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;
- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

"Charxpalak" texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin:

Mavzu: Gap bo'laklari

Vazifa: Berilgan gaplardagi ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini toping aniqlab, tegishli katakka "+" yoki "*" belgisini qo'ying.



№	Gaplar	Ot	Sifat	Sifatdosh	Olmosh
1	Kamtarlik kishiga zeb- ziynatdir.				
2	Ikkalasi hozir chiqib ketdi.				
3	Hamma hasharga to‘plandi.				+
4	Bahor.				
5	Bodom qiyg‘os gullagan.				
6	Yugurish — sportning bir turi.				
7	Birlashgan o‘zar, Birlashmagan to‘zar.				
8	Mard bir o‘lar, nomard yuz o‘lar.				
9	Sayohatga boradiganlar ro‘yxatga yozilsin.				
10	U bu uyda yashamaydi.				

Baholash:

9-10 ta to‘g‘ri javob – “a’lo”, 7-8 ta javob – “yaxshi” 6 ta javob – “qoniqarli”

Yuqorida keltirilgan “Charxpalak” texnologiyasi o‘zbek tili darslarida qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofida tilarning fikrlarini hurmat qilishga, o‘zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zRFA “Fan”. 2006
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova.
3. Internet saytlari:
- ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz



ОНА ТИЛИ ФАНИДА О‘ҚУВЧИЛАРНИНГ ЖИДДИЙ ВА JUZ’IY XATOLARI USTIDA ISHLASH

Yulchibayeva Gulasal Sharifovna

Qo‘qon shahar 36- maktabining
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
e-mail:gulasalsharifovna@mail.ru

Annotatsiya: maqolada ona tili fanini o‘qitish va o‘quvchilar savodxonligida uchrab turadigan turli xatolar yuzasidan mulohazalar, xatolarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, xatolar ustida ishlash, imlo, o‘qitish

Hozirgi kunda o‘quvchi savodxonligi muhim masala hisoblanib, imlo bo‘yicha bir qancha muammolar yuzaga kelgan. Shu ma’noda ona tili va adabiyot o‘qituvchisining zimmasida mas’uliyat ortib bormoqda. Quyida shu xususida mulohazalarimizni bayon etamiz. Ona tili fanida xatolarni aniqlashning quyidagi usullari faollashgan: 1. Xatolarni miqdori va sifati (tip yoki xarakteri) jihatidan aniqlash.

2. Xatolarning miqdori va xususiy (individual)ligini aniqlash.

3. Xatolarni o‘tilgan yoki o‘tilmagan qoidalarga oidligi jihatidan aniqlash.

Xatolarni miqdor jihatidan aniqlash o‘quvchilarning umumiy savodxonlik darajasini belgilash uchun qulay bo‘lib, bilimni oshirishda amaliy qimmatga ega emas. O‘quvchilar bilimni oshirish va mustahkamlash, malakasini kengaytirishda esa xatolar sifati (tipi va xarakteri)ga e’tibor berish muhim ilmiy-metodik va amaliy ahamiyat kasb etadi. Har bir baho uchun me’yor va mezonni belgilashda xatolarning xarakteri, tipi va miqdori hisobga olinadi. Bu jihatdan ular quyidagicha guruhlanadi: a) qo‘pol va qo‘pol bo‘lmagan xatolar; b) bir xil yoki har xil tipdagi xatolar; v) takroriy yoki tasodifiy xatolar; g) o‘tilgan mavzuga doir yoki tegishli bo‘lmagan xatolar.

Qo‘pol (jiddiy) va qo‘pol bo‘lmagan (juz’iy) xatolar quyidagi prinsiplar asosida belgilanadi. **Qo‘pol (jiddiy) xatolar:** 1. Dastur hajmi va talab darajasidagi ona tili hodisalarini yaxshi o‘zlashtirmaslik, har bir sinf uchun mo‘ljallangan va o‘tilgan orfografik, punktuatsion qoidalarni puxta bilmaslik, ulardan yozma ishlarda to‘g‘ri foydalana olmaslik. 2. Sodir bo‘lgan xato tufayli so‘z ma’nosi va gap mazmunining jiddiy o‘zgarishi hamda farqlanishi (masalan, *qattiq o‘rniga qatiq; davo o‘rnida da’vo, sur’at o‘rnida surat yozish* kabi holatlar). 3. o, q, h kabi diakretik belgili harflarni belgisiz yozish (ko‘z o‘rnida kuz, qo‘l o‘rnida ko‘l, kul o‘rnida ko‘l, ko‘zi o‘rnida ko‘zi, shox o‘rnida shoh; xil-xil o‘rnida hil-hil). 4. Juft so‘zlarni yozishda, satrdan satrga ko‘chirishda defis qo‘ymaslik, shuningdek, defis o‘rnida tire ishlatish va aksincha. Shuningdek, tire va defislarni grafik jihatdan ham farqlab ishlatish zarur. 5. Muayyan gapga xos tinish belgilarini qo‘llamaslik yoki noo‘rin ishlatish (masalan, gap oxirida qo‘yilishi shart bo‘lgan nuqta, so‘roq, undov, ko‘p nuqta, nuqtali vergul kabilarni tushirib qoldirish). 6. So‘z shakllarini qorishtirish, almashtirib qo‘llash: a) kelishik qo‘shimchalarini qorishtirish, farqlamaslik qo‘pol uslubiy xato sanaladi; b) yasovchi qo‘shimchalarni noto‘g‘ri ishlatish: bevosita-bavosita, bebro‘-baebro‘; sinfdosh-hamsinf yoki hamqishloq- qishloqdosh.

Qo‘pol bo‘lmagan (juz’iy) xatolar: 1) dastur doirasidan tashqari va eslatmalarda berilgan qoidalarni bilmaslik va yozma ishlarda ularga amal qilmaslik;

2) sheva xatolari (ona o‘rnida oyi, aya, momo, chaqimchi o‘rnida chaqimboz, kiyik o‘rnida kiyikcha; mol bozor o‘rnida hayvon bozor: to‘xtamoq o‘rnida bostirib to‘xtamoq kabi qo‘llashlar); 3) ko‘ngil, tongi, o‘zingiz, yashchik, pomeshchik kabi so‘zlarda ng va sh ch harfiy birikmalarni ajratib ko‘chirish: ko‘n-gil, sin-gil, yan-gi, ton-gi, o‘zin-giz, yash-chik, pomesh-chik kabi; 4) bir tinish belgisi o‘rinda ikkinchisini almashtirib qo‘llash yoki qo‘sh tinish belgilardan birontasini tushirib qoldirish (masalan, gap o‘rtasida kelgan kishilar, undalmalar, undovlarni faqat bir tomondan ajratish; qavslar yoki qo‘shirnoqlardan bir elementini tushirib qoldirish kabi. Ko‘p uchraydigan xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini amaliyotga joriy qilish uchun o‘qituvchi jiddiy izlanishi kerak bo‘ladi. Aksariyat o‘quvchilar “h” va “x” harfi qatnashgan so‘zlarni yozishda xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Tovushlarni o‘rganish davomida “H” tovushi bo‘g‘izda talaffuz qilinishi, “X” tovushi dag‘alroq aytilishi haqida qisqacha ma’lumot beriladiz. Bu tovushlarning so‘zdagi o‘rnini yaxshi eslab qolish maqsadida o‘quvchilar “Lug‘at daftari” yuritadilar. Har bir darsda “H” va “X” ishtirok etgan yangi so‘zlarni daftarga yozib boradilar. Mashg‘ulotlarda “H” va “X”



tovushlari imlosi, ularning bir-biridan farqlash usullari haqida batafsil ma'lumot berib boriladi. "H" harfi "Alifbo"ning 7-harfi, bo'g'izda sirg'alib hosil bo'ladigan jarangsiz undosh tovushni bildiradi. Bu tovush yumshoq talaffuz qilinadi. "X" harfi esa "Alifbo"ning 22-harfi bo'lib, chuqur til orqasida hosil bo'luvchi sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni bildiradi. Uning jarangli jufti "G" undoshidir. "H" va "X" tovushlarni yaxshi ajrata olmaydigan o'quvchilar so'zlarni taxminan yozadilar. Natijada insho, bayon, diktant kabi yozma ishlarda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar. Bundan tashqari xorijiy tillardan, jumladan, arab tilidan o'zlashgan, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan "H"li yoki "X"li so'zlarda bir xil harflar yoziladi. Masalan: xabar – (so'z o'zagi x-b-r), axbor (xabarlar), axborot (jamlangan xabarlar), muxbir (xabarchi); xulq- (so'z o'zagi x-l-q)- odob, axloq (xulqlar); xalq-(so'z o'zagi x-l-q) – yaratilgan, xoliq- yaratuvchi, xaloyiq –xalq, maxluq- yaratilgan. Haq – (so'z o'zagi h-q), huquq (haqning ko'pligi, ya'ni haqlar); hol – (so'z o'zagi h-l), ahvol (holning ko'pligi),ahvolot – holat; had – (so'z o'zagi h-d)- chegara ma'nosida, sarhad – davlat chegarasi, haddidan oshmoq – o'zining chegarasini bilmaslik; habib- do'st (so'z o'zagi h-b-b), ahbob – do'stlar, mahbub, Mahbuba, Habib, Habiba; hosil- (so'z o'zagi h-s-l), mahsul, mahsulot. Yuqoridagi usullar "H" bilan "X" tovushlarini farqlashda bizga katta yordam beradi. Eng asosiysi, izohli lug'atlardan, imlo lug'atlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko'proq badiiy asarlarni, gazeta va jurnallarni muntazam o'qish ham imlo qoidalarini mukammal o'rganishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Yozma ishlar asosida nutq o'stirish. "Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari". O'TDA yig'ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 327-329 betlar.
2. Abdurahmonova S. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantiruvchi zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish usullari. "Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari". O'TDA yig'ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 351-353 betlar.



ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ОБУЧЕНИЯ

Вайтова Гулираъно Ташпулатовна

учитель русского языка и литературы школы №5
Навоийской области Кизилтепинского района
tel:906198035.gulira'no.vaitova.@.mail.ru.

Аннотация: Статья посвящена актуальному вопросу активизации интереса школьников к изучению русского языка. Игровые технологии, их элементы на уроках русского языка позволяют привлечь внимание учащихся к предмету, сделать процесс обучения более интересным для них.

Ключевые слова: повышения, мотивация, метод, игры, технология, эффективность

Как элемент любого урока, метод обучения русскому языку, как прием активизации учебного процесса и воспитания интереса к изучению русского языка на уроках - я использую игры. В этом и могут помочь дидактические игры, их периодическое использование на уроках. У учителя есть возможность выбрать методы и технологии обучения, которые, по его мнению, наиболее оптимальны для построения и конструирования учебного процесса. Любая технология обладает средствами, активизирующими деятельность учащихся, в некоторых технологиях эти средства составляют главную идею и основу эффективности результатов. К таким технологиям можно отнести игровые технологии. Их задача сделать процесс обучения занимательным, создать у детей бодрое, рабочее настроение, облегчить преодоление трудностей в усвоении нового материала. Игровые технологии я использую в основном в 5-ых классах. Это связано с тем, что пятый класс - переходный этап в жизни детей: из начальной школы - в среднюю, в мир новых учителей, новой программы, новых предметов. Задача учителей в это время - сделать так, чтобы встреча с незнакомым не испугала, не разочаровала, а, наоборот, способствовала возникновению интереса к учению. Мне как учителю русского языка и литературы приходится решать такую задачу почти каждый день. Я убедилась, что на таких уроках ученики работают более активно. Особенно радуется, что те ученики, которые учатся неохотно, на таких уроках работают с большим увлечением. Если же урок построен в форме соревнования, то, естественно, у каждого учащегося возникает желание победить, а для этого они должны иметь хорошие знания. После каждого подобного урока я слышу от детей фразу: «Давайте ещё поиграем», что свидетельствует об успешности урока. Это оправдывается, когда учитель увидит, с каким азартом работают дети. Уроки, проводимые в игровой форме или с элементами игры, дают возможность учителю вовлечь в работу одновременно всех учеников, создать благоприятную атмосферу на уроке, а использование. При изучении раздела «Фонетика» в 5 классе использую элементы игры, что очень нравится ребятам и способствует лучшему запоминанию изучаемого материала, т.к. количество часов ограничено. Вот пример фонетической игры.

Игра «Салат». В огороде выросли следующие овощи: морковь, капуста, репа, редька, укроп, картофель, огурцы, помидоры, свекла, лук, петрушка, салат, горох, перец, чеснок. Хозяйка для приготовления салата взяла следующие овощи: 1 - в слове 2 слога, 7букв, 6звук (морковь); 2 - в слове 2 слога, ударение падает на первый слог, 2 согласных звука мягких (перец); 3-в слове 1 слогу все согласные звуки твердые (лук); 4 - в слове 4 слога (помидоры). В результате дети получают предложение. Для приготовления салата хозяйка взяла помидоры, морковь, перец, лук.

Игра «Новоселье». Звери и птицы построили многоэтажный дом. Когда же стали заселяться, то начались споры, кому, где жить. И тогда решили: те животные, чьи названия состоят из одного слога, пусть живут на первом этаже, чьи названия из двух слогов - на втором этаже и т. д.

Учитель называет животное, дети отвечают, на каком этаже будет жить то или иное животное. Примеры животных: ласка, еж, барсук, енот, куница, лось, лиса, заяц, бобр, косуля, волк, росомаха, рысь, медведь, горностай.

Игра «Чей букет лучше?» Соберите в букет цветы, в которых есть хотя бы один мягкий звук. (Цикорий, гладиолус, гвоздика, роза, ромашка, сирень, ландыш, астра, нарцисс, на-



стурция, шиповник, колокольчик, лютик, георгин, фиалка, петуния, календула, бархатцы, василёк, жасмин).

Слова на листочках напечатаны заранее, «букет» нужно собрать в тетрадь. Этот игровой момент помогает ребятам лучше запомнить твёрдые и мягкие звуки. В 5-ом классе при закреплении темы «Фонетический разбор слова» провожу игру «Найди лишнее». Ребятам нужно отгадать слова и выбрать лишнее слово. Например: Аалтрек, лажок, раукжк, зоонкв. (тарелка, ложка, кружка, звонок) Рекомендую использовать и другие игровые формы на уроках русского языка: игровые задания, направленные на отработку орфографических и пунктуационных норм: «Третий лишний»; «Я работаю волшебником»; «По щучьему велению»; «Справочное бюро»; «Словарный диктант»; «Диктант-шутка»; «Диктант-молчанка»; «Цифровой диктант»; «Найди пару»; «Умный редактор»; «Отними букву»; «Вставь букву»; «Замени букву»; «Возвратная форма»; «Поставь ударение»; «Двойное ударение»; «Добавь мягкий знак».

Анализируя результаты уроков, на которых проводились игровые технологии, можно сделать вывод о том, что игровые технологии положительно влияют на повышение знаний русского языка. Игровые технологии на уроках русского языка создают ситуацию успеха для слабых учеников, они позволяют раскрыться таким ученикам. Игры создают условия для развития творческого мышления, смекалки, находчивости, сообразительности. Таким образом, используя игровые технологии на уроках русского языка, я убедилась, что познавательная и творческая активность учеников повышается, появляется интерес к русскому языку, желание узнать новое, победить. И как следствие этой работы - успехи в конкурсах и олимпиадах.

Используемая литература:

1. Бройде М. Русский язык в упражнениях и играх. / М. Бройде. - М., 2017
2. Г. Граник и другие «Секреты орфографии», «Просвещение», Москва, 2016г.
3. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. М., 2017



НОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ ОБУЧЕНИЮ ЯЗЫКУ

Миртазаева Гулмира Мирзаевна

Учитель начальных классов

Министерство народного образования

Республики Узбекистан общеобразовательная

Средняя школа №13 города Навои

Аннотация: Эта статья направлена на выявление преимуществ современного образования за счет использования новых образовательных технологий (информации и коммуникации, дизайна и исследований, а также игр) для повышения качества знаний учащихся и их интереса к знаниям.

Ключевые слова: Педагогические технологии, обучение, инструментальных и методологических средств

Педагогические технологии – качественно новая ступень в развитии «производственного аппарата» педагогики. Понятие технология (от греческого *techne* – искусство, мастерство, умение, *logos* - учение) имеет множество трактовок. Исторически понятие «технология» возникло в связи с техническим прогрессом и согласно словарным толкованиям представляет собой совокупность знаний о способах и средствах обработки материалов. Остановимся на некоторых из них. В энциклопедическом словаре дается следующее определение: технология – это «совокупность методов обработки, изготовления, изменения состояния, свойств, формы сырья, материала или полуфабриката, осуществляемых в процессе производства продукции»

Педагогическая технология означает системную совокупность и порядок функционирования всех личностных, инструментальных и методологических средств, используемых для достижения педагогических целей

В технологическом подходе к обучению выделяют следующие этапы:

- постановка целей и их максимальное уточнение с ориентацией на достижение результатов;
- подготовка учебных материалов и организация всего хода обучения в соответствии с учебными целями;
- оценка текущих результатов;
- коррекция обучения, направленная на достижение поставленных целей;
- заключительная оценка результатов .

Основным способом реализации социально-личностного типа образования является использование педагогических технологий проблемного, развивающего, дифференцированного, рефлексивного, диалогового обучения и воспитания, технологии коллективной творческой деятельности, групповые, игровые технологии, получивший широкое распространение метод проектов, интерактивные технологии и др.

Каждая из этих технологий вносит свой вклад в развитие личности учащегося, в его социализацию.

Педагогическая технология есть продуманная во всех деталях модель совместной учебной и педагогической деятельности по проектированию, организации и проведению учебного процесса с безусловным обеспечением комфортных условий для учащихся и учителя.

Одна из основных причин того, что учащиеся средней школы теряют интерес к русскому языку, предпочитая ему другие предметы, заключается, на мой взгляд, в том, что мы, учителя русского языка, не всегда ярко и убедительно показываем учащимся богатство русского языка, его способность выражать самые различные мысли и чувства, все тоны и оттенки, все переходы звуков от самых твердых до самых нежных и мягких, не все делаем для того, чтобы ученики дивились «драгоценности нашего языка».

1. Игра «Перевёртыши».

А) Замени в словосочетании главное слово так, чтобы зависимое стало употребляться в переносном значении.

Железный гвоздь, румяная девочка, кудрявый малыш, спящая красавица, сладкий пирог, глухая собака, стальная балка, золотые часы, колючий ёж.



Б) Замены в каждой паре слов синоним антонимом, а антоним синонимом.

Грусть, тоска, радость; мрак, темнота, свет; близко ,далеко ,рядом;
храбрец, трус, смельчак; похвала, порицание ,одобрение; жара, холод ,зной;
ложь, правда, вымысел.

Благодатный материал для развития речи даёт тема «Фразеологизмы». Сколько увлекательных игр можно предложить ребятам!

А) Замены фразеологизмом.

Метко—не в бровь, а в глаз; неожиданно—как снег на голову;
молчать—держаться язык за зубами.

Б) Закончи фразеологизм.

Дрожит... (как осинный лист);
катается....(как сыр в масле);
выводить... (на чистую воду);
вариться... (в собственном соку).

В) Угадай профессию.


Стричь под одну гребёнку; на живую нитку; сложить оружие; закидывать удочку; играть первую скрипку; открывать Америку; ждать у моря погоды; сгущать краски.

1. Для закрепления знаний правописания суффиксов -чик и -щик использую игру—эстафету «ЧИК И ЩИК ».

Класс делится на команды, которые соответствуют вариантам (первому и второму) . Одна из команд условно называется ЧИК, а вторая—ЩИК . Командам даётся листок, где через запятую записаны слова с пропущенными буквами в суффиксах -чик- и -щик-. По команде учителя начинается эстафета.

Каждый ученик на место пропуска вписывает букву «Ч» или «Щ» в зависимости от своего варианта. Та команда, чей лист окажется на столе учителя быстрее, получает 20 баллов, вторая 10. Каждая допущенная ошибка-минус 1 балл. Побеждает команда, набравшая большее количество баллов. Эстафету удобнее начинать с последней парты дальнего от учителя ряда.

4. При изучении «Морфемики» и « Словообразования» детям нравится игра « Ромашка»



Образуйте и запишите однокоренные слова , прибавляя к ним приставки.

4. «Найди нужную схему». Всем ученикам раздаю карточки, на которых записаны предложения. Ученик читает своё предложение вслух и находит среди заранее начерченных на доске схем ту, которая соответствует его предложению. Читаю три предложения, из которых два одинаковой структуры, а третье—другой (лишнее). Ученики должны начертить схему предложений одинаковой структуры, а затем записать «лишнее» предложение, указать, какое оно, объяснить знаки препинания.

5. При изучении темы «Назывные предложения» в 8 классе провожу игру «Свои предложения». За 10 минут учащиеся должны записать как можно больше назывных предложений. Например, Утро. Зимний день. Мой дом. Школа. После записи один ученик читает свои предложения, а другие вычёркивают однотипные. Выигрывает тот, у кого осталось больше «своих» предложений.

Обучение русскому языку подразумевает не только освоение письменной речи, но и норм произношения. Вот почему целесообразно на каждом уроке находить возможность для отработки произносительных норм.

Это может быть минутка-разминка под общим названием «Говорите по-русски правильно».

- «Пригласи на обед».



Задача: озвучить меню обеда, на который вы хотите пригласить своего друга (коллегу, знакомого)). В меню, конечно, должны оказаться тефтели, щавель, пирожки с творогом, сливовый или грушевый компот и т.д. (другие слова, традиционно вызывающие трудности в произношении).

- «В эфире – новости»

Данный тип заданий предполагает составление текста со словами, представляющими определенные трудности произношения. Тематика текста: события, происходящие в мире (стране, области). Подобное задание позволяет не только отработать произносительные нормы, но и стимулировать интерес учащихся к событиям, происходящим в мире, а значит, обеспечивают расширение кругозора. Как показывает опыт, систематическое применение подобного задания превращает школьников в зрителей новостных программ.

В преподавании русского языка огромную роль играет словарная работа, которую можно провести в игровой форме. Провожу различные виды словарных диктантов: «Упрямцы», «Дубль-диктант», орфографическая дуэль (словарный диктант в паре с взаимопроверкой), «Третий лишний».

Так, например, при изучении темы « Правописание приставок пре- и при- » в

6 классе провожу диктант «Упрямцы». Учитель диктует слова с приставкой при-, а ученики сами подбирают и записывают с приставкой пре-, ведь они – упрямцы. Результатом каждой игры должно стать либо приобретение новых знаний, либо улучшение качества уже существующих. Игра может быть как самостоятельной дидактической единицей, так и элементом при использовании любой другой технологии обучения. Игра универсальна, т. к. возможна на любом этапе урока, при любой его форме. Задачей учителя русского языка является совместить значимое для ребенка и значимое с точки зрения процесса обучения, науки.

Литература

1. Амонашвили, Ш.А. Размышление о гуманной педагогике – М. : 2001.
2. Баев, П.М. Играем на уроках русского языка. – М., 1989.
3. Полат, Е.С., Бухаркина М.Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб.пособие для студ.высш.уч. заведений. -М.: Изд. центр «Академия», 2007.



О‘QUVCHILARDA YOZMA SAVODXONLIKINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Хо‘jamova Mahbuba Fayzullayevna,
Navoiy viloyat Xatirchi tumani
59-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning ahamiyati, diktant turlari, uning maqsad va vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: diktant, ta’limiy diktant, nazorat diktant, erkin diktant, saylanma diktant

O‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning ahamiyati katta. Dars jarayonida yozma ishlarning turlicha bo‘lishi o‘quvchilarning yozuvga bo‘lgan muhabbatini oshiradi va taraqqiy ettiradi. Turli xildagi yozma ish bolalarning tafakkurini, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi hamda o‘quvchilarning bilimini mustahkamlaydi, takomillashtiradi. Yozma ishlarning quyidagi turlari o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish uchun samarali xizmat qiladi: diktant, bayon, insho va ko‘chirib yozish.

Yuqoridagi yozma ishlarning eng soddasi ko‘chirib yozishdir. Lekin ushbu yozma ishlarning barchasi o‘quvchilarda orfografik malakalarini shakllantirishga, mustahkamlashga, ularning ongli yozishlarini ta’minlashga va ish qobiliyatlarini o‘stirishga qaratilgan bo‘ladi. Matnni ko‘chirib yozishni orfografik, grammatik, uslubiy topshiriqlar bilan birgalikda olib boorish maqsadga muvofiqdir. Yozma ishning ko‘chirib yozish turida gapdagi tushirib qoldirilgan so‘z yoki bo‘g‘inni qo‘yib ko‘chirish, matnda berilgan so‘zni o‘zgartirish, berilgan namuna yoki grammatik topshiriq asosida matn yoki so‘z shaklini o‘zgartirish, so‘zlardan gap tuzish, berilgan namunaga o‘xshash gap tuzish, savollarga javob berish, so‘zlar ustiga qaysi grammatik shaklda ekanligini yozish, o‘qilgan va tahlil qilingan matn bo‘yicha savollarga javob berish kabilar kiradi. Ko‘chirib yozush turi ham bir necha xil bo‘lishi mumkin. Masalan, doskadan, jadvaldan yoki kitoblardan ko‘chirib yozish.

Yuqorida qayd etilgan yozma nutqni o‘stirishning asosiy va samarali, shu bilan birga katta ahamiyat kasb etadigan turi bu diktantdir.

1-11-sinflarda diktantlar, asosan, ikki maqsad uchun o‘tkaziladi. Biri grammatika, orfografiya va punktuatsiyadan o‘tilgan qoidalarini puxta bilib olishga yordam beradigan, mustahkamlaydigan, takomillashtiradigan ta’limiy diktant bo‘lsa, ikkinchisi, grammatika, orfografiya va punktuatsiyadan o‘tilgan qoidalarini o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganliklarini sinash, tekshirishga imkon beradigan nazorat diktantdir.

Ta’limiy diktantning yana bir nechta turi mavjud:

- eslatish diktanti;
- o‘z diktant yoki yoddan yozish;
- saylanma diktant;
- erkin diktant;
- grammatik topshiriqli diktant;
- tushuntiruvchi diktant;
- ijodiy diktant;

Quyida biz ta’limiy diktant turlarining ayrimlari xususida to‘xtalamiz.

O‘z diktant yoki yoddan yozish diktanti 4-7-sinflarda o‘tkaziladi. Bu diktanto‘quvchilarga grammatika va orfografiyadan olgan bilimlarni mustahkamlashga yordam berishi bilan birga og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishga ham katta ahamiyatga ega. O‘z diktant o‘tkazish uchun o‘tilgan mavzu qoidasiga va sinf o‘quvchilarining saviyasiga mos keladigan kichik bir parcha yoki she’riy asardan bo‘lak, yoki to‘rtlik tanlanadi. Tanlangan parchani o‘qituvchining o‘zi bir necha marta o‘qib beradi. O‘quvchilar matn yoki she’rni yodlab olgach, matn bekitiladi va o‘quvchilar yodlab olganlarini daftarga yozadilar. O‘quvchilar diktantni yozib bo‘lganlaridan keyin doskadagi matn ochiladi. O‘quvchilar yozganlarini doskadagi matn bilan solishtiradilar va xatolarini tuzatadilar.

Erkin diktant – bayonning soddaroq bir ko‘rinishi bo‘lib odatda boshlang‘ich maktablarning 3-4-sinfida o‘tkaziladi.

Erkin diktantda o‘quvchilar so‘zlarni va grammatik shakllarni o‘zgacha, erkin ishlata oladilar. Ushbu diktant turi o‘quvchilarning qanchalik tushunganliklarini aniqlashga yordam beradi.



O'qituvchi matnni bir marta o'qib eshittiradi. So'ngra bo'limlarga bo'lib o'qiydi. Agar o'qituvchi 3 ta gap o'qisa, o'quvchiuni ko'paytirib yozishi kerak bo'ladi: erkin diktant o'quvchilarni o'qilgan matnni yaxshiroq esga saqlab qolishda, atrofdagilar nutqini diqqat bilan tinglashda nutqni o'stirishda, yozma nutqni o'stirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Erkin diktant o'quvchilarning orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarini kamayib borishiga yordam berish bilan birga, o'quvchilarning bayon, insho yozishga o'rgatadi. O'quvchilarning yozma nutqi rivojlanadi.

Ijodiy diktant – o'tilgan qoidalarini puxta o'zlashtirishga yordam berishdan tashqari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ham o'stiradi. Ijodiy diktantda matn o'qib berilmaydi. O'quvchilar o'zlari berilgan so'zlar bilan mustaqil ishlaydi. Shu jihatga ko'ra ushbu diktant bayonga juda yaqin turadi. O'quvchilar diktantning bu turida so'zlarni to'g'ri yozishga, ularni o'z o'rnida ishlata bilishga va kichik-kichik matn tuzishga, ya'ni ijod qilishga o'rganadilar. Bu turdagi diktant yuqori sinfdagi bayonni osonlik bilan yozishga zamin hozirlaydi.

Diktant, umuman yozma ishlarning barcha turi ma'lum qoidalarining mustahkamlanishi bilan birga o'quvchilarni har bir gapga, so'zga, so'z birikmasiga diqqat bilan qarashga o'rgatadi. Shu bilan birga matndagi gaplardan kerakli so'zni, grammatiks haklni tezroq topa olishga o'rgatadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. – T: Navro'z, 2016. – 215 B.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2002.
3. Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. Toshkent: -2019.



ULUG' ADIB IJODINI O'RGANISHDA OSHKORA MULOQOT.

Teshayeva Nargiza Sheraliyevna,
Navoiy shahar, 13-o'rta umumta'lim
maktabi o'zbek (davlat) tili o'qituvchisi.

Annotatsiya: maqola o'quvchilarni hayotiy haqiqat ruhida tarbiyalashda xalqimizning sevimli yozuvchisi, jamiyat illatlariga qarshi mard kurashchi **Abdulla Qahhor** asarlari haqida.

Kalit so'zlar: poraxo'rlik, qusurlar, jinoyatkorona, byurokratik sansalorlik.

Ma'naviy tarbiya maktablarda ko'proq til va adabiyot o'qituvchilari zimmasiga tushadi. O'quvchilarni hayotiy haqiqat ruhida tarbiyalashda xalqimizning sevimli yozuvchisi, jamiyat illatlariga qarshi mard kurashchi **Abdulla Qahhor** asarlari juda qo'l keladi. Masalan, 5-sinfda yozuvchining

“**O'g'ri**” hikoyasini o'rganish orqali o'quvchilarni poraxo'rlik kabi qusurlarga nafrat ruhida tarbiyalash mumkin.

Darsda o'quvchilar asar matni bilan tanishtirilgach, ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pora va uning jinoyatkorona yo'li, byurokratizm ko'rinishlarining hozirgi davrdagi zararli oqibatlari oshkora, hayotiy misollar bilan tushuntiriladi. Pora sababli Qobil boboning xonavayron bo'lishi, byurokratik sansalorlik tufayli inson qadrining yerga urulishi misolida o'quvchilar o'rtasida oshkora fikrlashuv orqali ularda bunday yaramas illatlarga nisbatan nafrat uyg'otiladi,

Abdulla Qahhorning “**Kampirlar sim qoqdi**” hikoyasini o'rganish jarayonida kitobdagi tayyor materiallar bilan chegaralanib qolmay, asar voqeliklarini davr bilan bog'lab, hayotdan misollar keltirilsa, dars samaradorligi oshadi. Shubhasiz, bunda kampirlarning vatanparvarligi va mehnatsevarligiga alohida urg'u beriladi.

Asarning g'oyaviy mazmunini tushuntirish yuzasidan suhbat jarayonida hozirgi davrda ipak qurti boqish muammolari haqida oshkora fikrlashib olgan ma'qul. Chunki ipak qurti boqish juda mashaqqatli ish ekanligi qishloq o'quvchilariga hayotiy tajribalaridan ma'lum. Shuning uchun ham ular muloqotda faol qatnashadilar.

Ipak qurti boqish mehnatining og'irligi, jamoa va davlat xo'jaliklari tamonidan qurt boquvchilarga sharoit yaratib berilmasligi, davlat xarid narxning o'ta pastligi, jahon bozorida pillaning har bir kilogrammi 136 so'm bo'lgani holda pillakorlarga kam haq to'lanishi singari adolatsizlik o'qituvchi tomonidan keltirilgan dalillar orqali ayon bo'ladi. Bu esa o'quvchilarni o'z haq-huquqlarini himoya qiladigan kishilar bo'lib etishishlariga yordam beradi.

Ipak qurti boqishning qiyinchiliklari: ya'ni kecha- kunduz tinimsiz barg qirqib tashish va qurt parvarishining og'irliklari ikki- ikki yarim quti qurt boqish uchun oilalarda 8-10 kishi uzluksiz band bo'lishidan xabardor qishloq maktabi o'quvchilari shunday ishni bitta shaftoliga tishlari o'tmaydigan kampirlar bajarib, ular to'rt quti ipak qurti boqishga qaror qilishganliklari ulkan jasorat ekanligi haqida gapirishadi. Axir shuncha qurti boqish uchun zabardast yigitlar barg qirqishi, tashib keltirishi lozim. Yigitlar frontda, bilagida kuchi bor xotin- xalaj esa dala ishlaridan bo'shamaydi. Bunday mehnat qiyinchiliklari, azob- uqubatlaridan bexabar shaharlik o'quvchilar buni tushunmasliklari mumkin. Ammo ipak qurtini boqish mashaqqatini chuqur his etadigan qishloq yoshlari bu jasorat ekanligini yaxshi tushunadilar.

Abdulla Qahhor mazkur hikoyada hayot taqozosi bilan urush davri tufayli xalqimizda misli ko'rilmagan kuch uyg'onganligini ifodalash orqali kampirlar jasoratini ko'rsatgan. Oshkora muloqot davomida o'quvchilar qurt boqishning qiyinchiliklarini tasavvur qilar ekanlar, ularga bu mehnatning real natijalari haqida ham tushuncha beriladi. Shunda o'quvchilar mutaxassis olimlarimiz har quti qurt urug'dan 60-70 kilogrammdan ortiq pilla etishtirib bo'lmasligini isbotlasalar ham ba'zida matbuotda hanuz ayrim “kumush tola” ijodkorlari har quti ipak qurtidan 100-160 kilogrammdan pilla olganliklari haqida xabarlar paydo bo'lishi bilan ham tanishadilar. Ularga bu narsalar qo'shib yozishlar, davlatni aldash kabi illatlarga olib kelishi mumkunligi tushuntiriladi. Axir, aslida “mohir pillakorlar”ning bir quti urug' o'rniga ikki yoki uch quti olib, hujjatga bir quti deb yozdirayotganliklarni ayon bo'ladi – da.

Suhbat davomida pilla yetishtiruvchi oilalardan ko'pchiligining yashash sharoitlari yomonligi, ularning og'ir mehnatiga kam haq to'lanishi kabi muammolar o'rta qo'yilsa,



o'quvchilar adabiyot va hayot haqiqati masalasiga jiddiy munosabatda bo'ladilar.

Yuqori sinflarda obzor tazda **"Abdulla Qahhor – dramaturg"** mavzuida mashg'ulot o'tkazish ko'zda tutilgan. Bizningcha, bu mavzuga ko'proq vaqt ajratilib, adibning jamiyatimizda hozirgi kunda turadigan mansabparastlik, poraxurlik, buzuqlik, byurokratizm kabi yaramas illatlarni fosh qiluvchi "Tobutdan tovush" dramasini mukammalroq o'rganishni rejalashtirish kerak.

Asarda Suxsurov va Yusuf obrazlari orqali poraxurlik va mansabparastlik, Netayxon va Qori obrazlari timsolida boylik quturtirgan buzuqilar fosh qilinadi. Asarning mazmuni va badiiy xususiyatlari ustida ishlash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda ushbu illatlarga nafrat uyg'otib, ularni bunday illatlarga qarshi kurashga da'vat etadi.

O'quvchilarga poraxurlikda ayblanib, jinoiq javobgarlikka tortilgan sobiq amaldorlar to'g'risida ham gapirib o'tilsa, darsning hayotiyliigi oshadi, asarning tarbiyaviy ta'siri kuchayadi. Asar yuzasidan suhbat yakunida o'qituvchi o'quvchilarga turg'unlik davri illatlari deganda nimalarni tushunishlari, hozirgi kunda ham shunday illatlar uchrab turishi haqida savol tashlab, ulardan bu to'g'rida o'z fikrlarini bayon qilishni so'raydi.

Abdulla Qahhorning adabiyot dasturidan o'rin olgan "Sinchalak", "O'tmishdan ertaklar", "Ko'r ko'zning ochilishi" asarlari ham darslarda shu tarzda oshkora muloqot o'tkazish uchun boy material beradi.

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(7-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
